



**UNODC**  
United Nations Office on Drugs and Crime  
Regional Office for Central Asia



**YOUTH AFFAIRS  
AGENCY**



**TASHKENT  
STATE  
UNIVERSITY  
OF LAW**

# Yuridik klinik ta'lim asoslari



Yuridik klinika volontyorlari uchun  
trening materiallari to'plami

**O.Narziev**  
**Yuridik klinik ta'lim asoslari**

(Yuridik klinika ko'ngillilari uchun trening materiallari to'plami)

**Mas'ul muharrir:** y.f.d., prof. I.Rustambekov

**Taqrizchilar:** f.d., H.Radjapov  
y.f.n., S.Safoyeva

Mazkur o'quv - uslubiy qo'llanma yuridik klinikada fuqarolarga bepul huquqiy maslahat berish jarayoniga jalb etilgan talabalar bilishi lozim bo'gan mavzular va ularga bag'ishlangan ma'lumotlardan tashkil topgan. Ushbu qo'llanmada muallif talabalarda yuridik klinikaga murojaat etgan fuqarolarni qabul qilish, ularning murojatlaridagi huquqiy muammolarni aniqlash va ushbu muammolarning yechimi bo'yicha huquqiy maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Mazkur qo'llanma yuridik klinikaga qabul qilingan talabalar, klinikadagi kurator o'qituvchilar va fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash hamda huquqiy maslahat berishga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Ushbu nashrning mazmuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi yoki uning faoliyatiga hissa qo'shadigan tashkilotlarning qarashlari yoki siyosatlarini aks ettirmaydi, shuningdek, ushbu nashrda qo'llanilgan va taqdim etilgan belgilar va materiallar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi tomonidan biron bir mamlakat, hudud yoki shaharning yoki uning hokimiyatining huquqiy maqomi yoki uning chegaralarini delimitatsiya qilish to'g'risida hech qanday fikr bildirishni nazarda tutmaydi.

Ushbu nashr to'liq yoki qisman va har qanday shaklda ta'lim yoki notijorat maqsadlarda, mualliflik huquqi egasining maxsus ruxsatisiz, manbani tasdiqlash sharti bilan ko'paytirilishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi ushbu nashrdan manba sifatida foydalanadigan har qanday nashrning nusxasini olishdan mamnun bo'ladi. Ushbu nashr BMTning Tinchlikni ta'minlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan "Farg'ona vodiysida yoshlarning ijtimoiy uyg'unligi" qo'shma loyihasi doirasida tayyorlangan.

© O.Narziev 2021 yil.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021 yil.

© Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi, 2021

OTABEK NARZIEV

# **Yuridik klinik ta'lim asoslari**

(Yuridik klinika volontyorlari  
uchun trening materiallari  
to'plami)

# MUNDARIJA

<b>MUQADDIMA.....</b>	<b>6</b>
<b>1-BOB. YURIDIK KLINIK TA'LIMNING MAQSADI VA USULLARI .....</b>	<b>7</b>
1.1. Yuridik klinik ta'lim tushunchasi va turlari .....	7
1.2. Yuridik klinik ta'limning asosiy maqsadi.....	9
1.3. Jahonning nufuzli universitetlarida faoliyat olib boruvchi yuridik klinikalar.....	10
1.4. Yuridik klinik ta'limni amalga oshirish usullari: AQSH tajribasi .....	12
1.5. Yuridik klinik ta'limning majburiyligi.....	17
<b>2-BOB. YURIDIK KLINIKADA MUROJAATCHILARNI QABUL QILISH.....</b>	<b>20</b>
2.1. Yuridik klinikada murojaatchilarni qabul qilish .....	20
2.2. Murojaatchi bilan uchrashuvga tayyorlanish.....	23
2.3. Intevyuni bosqichma-bosqich o'tkazish.....	25
2.4. Murojaatchining psixologik holati to'g'risida ma'lumot olish .....	29
2.5. Murojaatchini yuridik klinikaga qabul qilishning dastlabki qoidalari.....	33
<b>3-BOB. YURIDIK KLINIKADA MUROJAATCHIGA BEPUL HUQUQIY MASLAHAT BERISH .....</b>	<b>42</b>
3.1. Huquqiy maslahat berish tushunchasi va turlari.....	42
3.2. Yozma maslahat uchun tavsiyalar.....	44
3.3. Huquqiy maslahat berishga tayyorlanish.....	46
3.4. Murojaatchi bilan klinika talabalarining uchrashuvi .....	51
3.5. Murojaatchining muammosini hal qilish .....	53
3.6. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish strategiyasi va taktikasini aniqlash .....	57
3.7. Karantin sharoitida yuridik klinika faoliyatining tashkil etilishi .....	58
<b>SO'NGSO'Z O'RNIDA .....</b>	<b>63</b>



# MUQADDIMA

Yuridik klinika – bu huquq maktablari tomonidan talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash hamda aholining yuridik yordamga muhtoj qismiga bepul yuridik ko`mak berish maqsadida tashkil etiladigan pro bono tamoyili asosida faoliyat ko`rsatuvchi ko`ngilli talabalar tashkiloti. Mamlakatda yuridik klinikaning mavjudligi nafaqat past daromadli fuqarolar uchun, balki huquqshunoslik yo`nalishi talabalari uchun ham muhim hisoblanadi. Binobarin, ushbu muassasalarda faoliyat yuritish mobaynida talaba ham huquq bo`yicha bilimlarini, ham bepul xizmat ko`rsatish orqali insoniy hislatlarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda yuridik klinik ta`lim yuridik ta`lim muassasalari bitiruvchilarining nazariy bilimlarini amalda qo`llashga tayyor emasligi muammosiga muqobil yechim sifatida rivojlanib kelmoqda. Shu jihatdan yuridik klinik ta`limning maqsadlari qisman an`anaviy ta`lim muammolarini hal qilish zarurati bilan belgilanadi. Bundan tashqari, turli mamlakatlardagi yuridik klinik ta`lim dasturlarida ishtirok etgan talabalarning aksariyati universitetni bitirmasdan oldin amaliy kunikmalarga ega bo`lishadi va jamiyatdagi ayrim huquqiy muammolardan bevosita xabardor bo`ladi.

Butun dunyo bo`ylab ko`plab huquqshunoslar, sudyalari, oliy o`quv yurtlari o`qituvchilari va talabalar yuridik ta`limni takomillashtirish yo`llarini izlashadi. Ko`pgina mamlakatlarda an`anaviy yuridik ta`lim oliy ta`lim muassasasi darslarida qatnashishni anglatadi. Har bir mamlakatda bunday darslarni o`tishning o`ziga xos usullari mavjud. Masalan, Amerika Qo`shma Shtatlarida asosan “Suqrot usuli” deb nomlangan savol-javob usulidan keng foydalaniladi. Ba`zi boshqa mamlakatlarda esa ushbu darslar asosan ma`ruza shaklida o`tkaziladi. Ko`plab ta`lim muassasalarida talabalarga huquqiy hujjatlar tayyorlash, shuningdek o`quv xonalarida sud protsessini sahnalashtirish orqali sud amaliyotining bazi ko`rinishlari ham o`rgatib boriladi va bu ayrim holatlarda talabalarning oliy ta`lim muassasasidagi yagona amaliy mashg`uloti bo`lib qoladi.

An`anaviy ta`lim tizimida tahsil olgan talabalar ko`pincha yuridik sohadagi ishlarga amaliy jihatdan tayyor emasliklarini his qilishadi. Ular hujjatlarni tayyorlash va ularni ro`yxatdan o`tkazish, murojaatchilar bilan ishlash va ularga tavsiyalar berish, sud majlislarini o`tkazish jarayonida muammolarga duch kelishadi. Ko`pgina mamlakatlarda o`qituvchilar, huquqshunoslar va sudyalari an`anaviy huquqiy ta`limda bir xil muammolarga duch kelishadi. Ular huquqiy ta`lim tizimidagi bo`shliqni to`ldirish uchun talabalar bilan birgalikda yangicha ta`lim usullarini yaratishga harakat qilishadi. Xuddi shunday ta`lim usullari bugun Toshkent davlat yuridik universitetida ham keng qo`llanilib kelinmoqda. 2020-2021 o`quv yilidan boshlab 1-kurs talabalari uchun “Yuridik klinika” nomli fakultativ kurs kiritilishi, yuridik ta`lim tizimini amaliyot bilan uyg`un tarzda tashkil etish, talabalarga nazariy bilim bilan bir vaqtda ularni amaliyotda qo`llash imkoniyatlarini berish va jamiyat ravnaqi uchun yanada salohiyatli kadrlar tayyorlash maqsadlarga qaratilgan.

## **T-BOB. YURIDIK KLINIK TA'LIMNING MAQSADI VA USULLARI**

### **1.1. Yuridik klinik ta'lim tushunchasi va turlari**

«Yuridik klinik ta'lim» deganda huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha tehsil oluvchi talabalarga professional yuristlar, advokatlar faoliyatida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul huquqiy yordam berish orqali tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan yuridik ta'lim tizimining bir qismi tushuniladi.

Yuridik klinik ta'lim quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Haqiqiy holatlarda yuridik klinikaga murojaat etgan fuqarolarni o'qituvchilar nazorati ostida qabul qilish («haqiqiy murojaatchilar klinikalari» deb ham nomlanadi);
2. Auditoriyadagi bosqichma-bosqich o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar, masalan, simulyatsion sud jarayonlari;
3. Talabalar yuridik idoralarda tajribali yuristlar rahbarligi ostida ta'lim olishi («amaliyot dasturlari» yoki internship deb ham nomlanadi);
4. Yuqoridagi usullarni o'zaro yaxlit tizim sifatida o'rgatish orqali (yuridik klinika o'quv dasturlari).

Bugungi kunda malakali yuridik kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan muassasalarda klinik ta'limning uchta asosiy turlari keng qo'llaniladi.

**1. Yuridik klinikalar.** Klinik kurs davomida har bir talaba yuridik yordamga muhtoj bo'lgan haqiqiy murojaatchilarning real muammolarini o'rganadi, ularga javoblar tayyorlaydi, maslahat beradi yoki muayyan ishlarda ularning vakili bo'ladi. Odatda, bunday klinikada masalalar nisbatan oddiy, ya'ni odatda talabalar bir tomon manfaatlari bo'yicha ishlaydi. Yuridik klinikaning yana bir turi hisoblangan mediatsiya klinikasida esa talaba nizoli bo'lgan ikki tomonga o'z nizolarini hal qilishda amaliy yordam berishga harakat qiladi. Talaba tomonidan huquqshunoslik vazifalarining bajarilishi o'qituvchi tomonidan bevosita kuzatib boriladi. Eng avvalo, talaba vakil sifatida o'z murojaatchilarining muammolaridan kelib chiqib huquqiy yechimlarni izlaydi. So'ngra talabalar simulyatsiya ya'ni sahnalashtirish rejimida turli xil mavjud echimlarni amalda qo'llashga harakat qilib ko'rishadi. Eng so'nggida esa talaba tomonidan haqiqiy murojaatchining manfaatlari ifodalanadi va huquqshunoslik vazifalari bajariladi hamda mazkur holat o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Shunday klinikalar borki, ularda talabalar tomonidan murojaatchilarga maslahat beriladi va ularning nomidan vakillik qilinadi, shuningdek, nizoli vaziyatlarga nisbatan talabalar tomonidan vositachilik qilinadi. Bunday ko'rinishdagi yuridik klinikalarda talabalar klinika xodimlarining nazorati ostida faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda ilk tashkil etilgan ikki yuridik klinikalardan biri, ya'ni Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatikasi Universiteti qoshidagi yuridik klinikasi talabalari klinikaga murojaat etgan shaxsning vakili sifatida professor-o'qituvchi nazorati ostida sudda ishtirok etishi mumkin edi.

**2. Simulyatsiya ya'ni sahnalashtirish kurslari.** Mazkur kurslarda talaba haqiqiy murojaatchilarsiz huquqshunoslik vazifalarini bajarishga harakat qiladi. Bu holatda talaba tomonidan noto'g'ri harakatlar amalga oshirilganda ham mazkur harakatlar orqali haqiqiy murojaatchilarning manfaatlariga zarar yetmaydi. Keng tarqalgan sahnalashtirish kurslaridan biri bu advokatning suddagi harakatlaridir. Unda talabalar, eng avvalo, advokatning suddagi ishtirokini tartibga soluvchi qonun normalarini o'rganishlari talab qilinadi. So'ngra talabadan advokat sudda qanday vazifalarni bajarishi so'raladi. Masalan, o'zlarini murojaatchi sifatida ko'rsatgan boshqa talabalardan foydalangan holda murojaatchini sud jarayonidagi singari so'roq qilish so'ralishi mumkin. Sahnalashtirilgan yakuniy sud protsessida talaba boshqa talabalardan murojaatchi, sudya, qarshi taraf va advokat sifatida foydalangan holda advokatning suddagi ishtirokini to'liq ko'rsatib beradi. Bunday sud protsessi va unda advokatning ishtirokiga o'qituvchi tomonidan baho beriladi. Bu kabi


kurslardan talabalar tomonidan murojaatchilarga maslahatlar berish, muzokaralar olib borish va vakillik qilish ko'nikmalarini shakllantirishda ham foydalaniladi.

Amaliyotga asoslangan yuridik ta'limning **ikkinchi turi** simulyasiya deb nomlanib, unda talabalar real hayotdagi muammolarga o'xshatib tayyorlangan ishlarni muhokama qilishadi, yuristlar tomonidan bajariladigan ishlarni sahnalashtirishadi va real hayotda vujudga kelgan haqiqiy holatlar bilan shug'ullanishmaydi.

**3. Nazorat ostidagi amaliyot (internship).** Ushbu usulda talaba amaliyotchi huquqshunos, advokat, sudya, notarius tergovchi, yuridik xizmat xodimi yoki boshqa huquq sohasidagi mutaxassisning yordamchisi vazifasini bajaradi va shu orqali huquqni qo'llash amaliyotini o'rganadi. Shuningdek, talaba o'rgatuvchi tomonidan topshirilgan boshqa yuridik ahamiyatga ega vazifalarni ham bajarishi mumkin. Amaliyot davomida har bir talabaning o'rgangan ko'nikmalari o'qituvchi rahbarligida, guruh orasida tahlil qilinadi. Ushbu usul tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'rgatiladigan "kasalxonani aylanib chiqish" usuliga o'xshaydi. Chunki o'qituvchi ushbu usuldan foydalangan holda o'z vazifasini bajarishga tayyor bo'lgan yuristlarni tanlab oladi.

Yuridik ta'limning amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan **uchinchi** turida esa talabalar yuridik soha vakillari faoliyatini kuzatadilar va ularga amaliy jihatdan yordam beradilar, eng so'nggida esa o'rgangan tajribalarini dars mashg'ulotlari davomida muhokama qiladilar (internship). Bundan tashqari, ko'plab huquqshunos professorlar an'anaviy tarzda ma'ruza yoki Suqrot usulidan (savol-javob usuli) foydalanadilar va o'zlarining odatdagi dars uslublarini yuqoridagi klinik usullar bilan to'ldirib boradilar.

**4. An'anaviy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan klinik usul (Street Law).** «O'qish orqali o'rganish» tushunchasi odatdagi darslarda, hattoki ko'p sonli talabalar orasida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, yuqoridagi alimlar undirish bo'yicha murojaat namunasi ko'plab talabalar ishtirok etgan fuqarolik huquqi va protsessi seminarida ham ishlatilishi mumkin. Odatdagi ma'ruza yoki Suqrot uslubiga muqobil holat sifatida o'qituvchi talabadan misol tariqasida keltirilgan murojaatchiga maslahat berishni so'rashi mumkin. Yuqorida tavsiflangan usullarga nisbatan bu ancha cheklangan «tajriba o'rganish» shakli bo'lsa-da, talabalarga amaliy yuridik ko'nikmalar berish va ularga huquqiy bilim berishning samarali usuli hisoblanadi.



(Mazkur piramida "Tajriba konusi" (Cone of experience) eki "O'qitish piramidasi" deb atalib, amerikalik professor Edgar Deil tomonidan ishlab chiqilgan.)<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://lidtfoundations.pressbooks.com/chapter/edgar-dale-and-the-cone-of-experience/>



Yuridik klinik ta'limning yuqoridagi barcha turlari uchun umumiy «amalda qo'llash orqali o'rganish» tushunchasi mos keladi. Uning mohiyati ma'lum bir sharoitda biror ishni amalga oshirishga harakat qilayotgan talaba ushbu topshiriqni o'zi bajarib ko'rmaguncha mukammal egallay olmaydi, degan g'oyaga asoslanadi. Yuridik klinik ta'limda samaradorlikka erishishning zaruriy talabi bu talabalar tomonidan o'zining va boshqalarning xatti-harakatlari to'g'risida tanqidiy va tahliliy fikr yurita olish hisoblanadi. Mazkur usul talaba tomonidan huquqiy ta'limotning har bir bo'g'inini to'liq anglash uchun eng samarali usul bo'lib, bu talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini muayyan sharoitlarga nisbatan qo'llash kunikmalarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Masalan, fuqaro yuridik klinikaga aliment undirish bo'yicha maslahat berishni so'rab murojlat etgan bo'lsa, mazkur murojlatga javob berish uchun talabadan muayyan bilim bilan bir qatorda aliment undirish jaryoniga oid amaliy kunikmalar ham talab etiladi.

Yuridik ta'lim muassasasi klinikasida talabadan bunday ma'lumotlarni haqiqiy holatda murojatchiga yetkazish; sahnalashtirilgan kurslarda esa talabadan xuddi shunga o'xshash o'ylab topilgan vaziyatlarga yechim berish; yoki nazorat ostidagi amaliyot vaqtida talaba shunday murojlatga javob yo'llashida amaliy yordam (uni kuzatib bilvosita tajriba orttirish) talab qilinishi mumkin. Barcha holatlarda huquqshunos yoki talabaning ishi kuzatib boriladi va zarur hollarda biriktirilgan professor-o'qituvchi tomonidan tegishli ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar tushuntiriladi. Bu talabaning qonunchilik haqidagi bilimlarini va uni qo'llash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Murojlatlar bilan ishlash talabaga qonunlarni bilish bu faqat boshlang'ich nuqta ekanligini, ammo muvaffaqiyatga olib keladigan yagona element emasligini amalda ko'rsatib beradi.

An'anaviy ma'ruza darslarida talabaga qonun nima ekanligi o'rgatiladi, ammo bunday darslarda talabalar qonun hujjatlari haqidagi o'z bilimlarini muayyan vaziyatga nisbatan qo'llashi talab qilinmaydi. Yuqorida keltirilgan "harakat orqali o'rganish" usuli ko'plab mamlakatlarda o'qitishning boshqa usullariga nisbatan samarali ekanligi isbotlangan.

Yuqorida yuridik klinik ta'limning turli shakllarini qisqacha tavsiflashga harakat qildik. Ushbu shakllardan kengroq foydalanish yuridik fanlarni o'qitish tajribasini boyitadi va ta'lim tizimining amaliyot bilan yaqinlashishiga yordam beradi, bu esa pirovardida kadrlar sifatining ortishi va jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

## 1.2. Yuridik klinik ta'limning asosiy maqsadi

Yuridik klinik ta'limning vazifalari uning maqsadiga erishishga qaratilgan bo'ladi. Yuridik klinik ta'limning **birinchi maqsadi** talabalarga yuridik xizmat xodimlari va advokatlar faoliyatida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat. Mazkur jarayon dunyodagi aksariyat yuristlar va advokatlar tomonidan amalga oshiriladigan umumiy faoliyatni, ya'ni murojatchilarni qabul qilish, ular bilan suhbat o'tkazish, maslahat berish va ishlarni olib borishni o'z ichiga oladi.

Yuridik klinik ta'limning **ikkinchi maqsadi** - talabalarining huquqshunos qanday bo'lishi kerak ekanligi haqidagi qarashlarini rivojlantirishga yordam berish hisoblanadi. O'qituvchilar rahbarligida talabalar huquqshunoslar oldida turgan ko'plab muhim masalalarni o'rganishlari mumkin. Masalan:

- advokat qanday qilib yangi huquq sohalarini tez va samarali o'rganishi mumkin?
- kasbiy huquqiy axloq qoidalariga rioya qilish nimani anglatadi?
- huquqshunos va advokatlarning jamiyatda tutgan roli qanday?
- nizoli vaziyatlarni murosa yo'li bilan hal qilishning anday usullari mavjud? Bunda huquqshunosning o'rni qanday?
- huquqshunos va advokatlar o'z malakalarini qanday namoyon qilishadi?
- yosh advokat shaxsiy va kasbiy manfaatlarini qanday uyg'unlashtirishi kerak?

Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasida ko'plab talabalar yuridik ta'lim jarayonidayoq ushbu savollarning ko'pini o'zlarining kun tartiblariga kiritib, bosqichma-bosqich o'rganib kelishmoqda.

Yuridik klinik ta'limning **uchinchi maqsadi** yuridik soha xizmatiga ehtiyoj sezgan, huquqlarini himoya qilish zarur bo'lgan shaxslarga bepul huquqiy xizmatlarni ko'rsatishdir. Advokat yollash uchun imkoniyati bo'lmagan jinoiy xatti-harakatlarda ayblanayotganlar, o'z erkinliklari nohaq cheklangan deb hisoblaydigan va o'z da'volarini himoya qilish uchun imkoni bo'lmaganlar va boshqalar shunday shaxslar qatoriga kiradi. Butun dunyo bo'ylab yuridik ta'limga ixtisoslashgan professor – o'qituvchilar yuridik klinik ta'lim orqali amalga oshiriladigan bepul huquqiy yordamni barcha murojaatchilarga yoki yordamga maksimal darajada muhtoj bo'lganlargagina ko'rsatish kerakligi borasida bahs olib boradilar. Bu tortishuvning oxiri yo'q. Biroq, ko'pchilik shaxslar yuridik klinik ta'lim rivoji ham, yuridik xizmatga muhtojlarga xizmat ko'rsatish ham birdek muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

Yuridik klinik ta'limning **to'rtinchi maqsadi** ijtimoiy o'zgarishlarni targ'ib qilish bo'lib hisoblanadi. Unga ko'ra, huquqshunos talabalar va o'qituvchilar «jamoat manfaatlari»ga oid ishlarni ko'rib chiqishlari mumkin va ularning yechimi ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelishi yoki ilg'or ijtimoiy qonunlarning qabul qilinishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Ya'ni, xususiy yuridik firmalar pul topish zaruriyati tufayli ko'pincha bunday jarayonlarda ishtirok eta olmasalar-da, huquqshunos talabalar va o'qituvchilar intellektual erkin fikrga ega shaxslar sifatida ularda ishtirok etishi ijobiy ko'rinishga ega.

### **1.3. Jahonning nufuzli universitetlarida faoliyat olib boruvchi yuridik klinikalar**

Ta'lim jarayonida yuridik klinikalardan foydalanish o'tgan asrning boshlarida shakllangan bo'lib, faqatgina 1960-1970-yillardan boshlab AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Hindiston va Afrikaning janubiy va sharqiy qismida keng tarqalishni boshlaydi. Yevropa, Osiyoda ushbu institutlar 1990 yillardan boshlab rivojlangan. Hozirda ko'plab nufuzli yuridik universitetlarda yoki universitetlarning yuridik fakultetlarida yuridik klinikalar mavjud bo'lib, ular talabalarga haqiqiy yuridik muhitda o'z olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga va tajriba orttirishiga yordam beradi. Shuningdek yuridik klinikalarning eng foydali tomoni shundaki, yuridik klinikada mijozlarga bepul yuridik xizmatlar ko'rsatiladi.

Ba'zi universitetlarda tashkil etilgan yuridik klinikalarda talabalar ko'pgina yurisdiksiyalarda, hattoki jinoiy mudofaada ham talabalar mijozlar nomidan sudda ishtirok etishlariga imkon beradi. Aksariyat yuridik klinikalar faqat uchinchi kurs talabalari uchun ochiqdir, biroq ba'zilarida ikkinchi kurs talabalari uchun ham imkoniyatlar yaratilishi mumkin. Yuridik klinikalar odatda ma'lum bir sohada pro bono ishlarini olib boradilar, ular mijozlarga bepul yuridik xizmatlar ko'rsatadilar va yuridik klinikalar professorlar tomonidan nazorat qilinadi. Ma'lumki, Pro Bono iborasi lotincha «Pro bono público» iborasidan kelib chiqqan bo'lib, u «jamoat manfaati uchun» amalga oshiriladigan harakatlarni anglatadi. Bu yordamga muhtoj, kam imtiyozli, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki ularga yordam beradigan tashkilotlarga, shuningdek, jamoat manfaatlari uchun bepul yuridik maslahatlar berish, shuningdek jamoatchilikni qiziqtirgan masalalar bo'yicha bepul yuridik maslahat berish demakdir.

**Toronto Universiteti Huquq fakulteti yuridik klinikasi.** Kanada – jahonning Top-1000 talik universitetlari ro'yxatida 18-o'rinda turadi. Toronto Universiteti Yuridik fakultetida ham yuridik klinikalar tashkil etilgan bo'lib, ular aholiga muhim huquqiy xizmatlarni ko'rsatishga imkon beradi, shu bilan birga talabalarga muhim amaliy klinik ta'lim tajribalarini taklif etadi. Ushbu universitetda 4 ta yuridik klinika faoliyat olib boradi.<sup>2</sup> Ular:

**Shahar markazidagi yuridik xizmatlar klinikasi** - bu yuridik klinikaning kam ta'minlangan mijozlari uchun etakchi jamoat manfaatlari himoya qilish klinikasi hisoblanadi.

<sup>2</sup> Batafsil ma'lumot uchun qarang: <https://www.law.utoronto.ca/centres-programs/legal-clinics>

**Xalqaro inson huquqlari klinikasi** - asosiy e'tiborni xalqaro inson huquqlari muammolariga qaratadi.

**Devid Asper konstitutsiyaviy huquqlar markazi advokatlik klinikasi** - talabalarga konstitutsiyaviy huquqlar sohasida amaliy bilim o'rttirishga va siyosiy targ'ibotga e'tiborni qaratib, targ'ibot ishlarini olib borish imkoniyatini beradi.

**Investorlarni himoya qilish klinikasi** - sarmoyalari bilan bog'liq zarar ko'rishini mumkin bo'lgan zaif jamoat a'zolariga (investorlar, qariyalar, yangi kelganlar va boshqalar) huquqiy yordam beradi.

**Université L'Université du Luxembourg** – dunyoning Top-1000 talik universitetlari ro'yxatida 601-o'rinda turadi. Lyuksemburg Universitetida tashkil etilgan «Clinique du Droit» (Iste'molchilar huquqlari klinikasi) Evropa Ittifoqidagi yuridik klinikalarni takomillashtirish bo'yicha Evropa Ittifoqi miqyosidagi hamkorlikka qo'shilgan. Lyuksemburg Universitetining yuridik fakulteti talabalari magistrlik tahsillari davomida iste'molchilar huquqlari nizolar bo'yicha jamoat a'zolariga bepul yordam berishadi. Jamoatchilik vakillari mavjud bo'lgan qulay platforma tufayli o'z savollarini onlayn tarzda yuborishlari ham mumkin.

**Iste'molchilar huquqi klinikasi** («Clinique du droit») 2015 yil mart oyida prof. Elise Poillot tomonidan Evropa xususiy huquqshunoslik magistrlik dasturi doirasida iqtisodiy huquq va moliya huquqi yo'nalishlarida tashkil etilgan. Talabalar klinika mijozlariga ularning iste'molchilar huquqlari bo'yicha nizolarni hal qilishda yordam berishadi. Ishlar Lyuksemburg iste'molchilar qonunchiligiga muvofiq va 5000 evrodan kam da'volarni o'z ichiga olgan holda, keng jamoatchilikning barcha vakillari tomonidan taqdim etilishi mumkin. Yuridik klinikalar talabalarni hayot davomida sodir bo'ladigan holatlar bilan tanishtirish orqali o'qish davomida amaliy tajriba o'rttirishga imkon beradi hamda klinikaga murojaat qilgan mijozlarga huquqiy yordam beradilar.

**Pontifisia Comillas universiteti yuridik klinikasi.** Universidad Pontificia Comillas, Ispaniya – dunyoning Top-1000 talik universitetlari ro'yxatida 651-o'rinda turadi. Pontifisia Comillas universitetida yuridik klinikani yaratish g'oyasi 2012-2013-yillarda yuridik fakultet Ispaniyaning yirik yuridik firmalari tomonidan olib boriladigan Pro Bono faoliyatini rag'batlantirish va osonlashtirishni ta'minlash uchun va Universitetning Hamjihatlik va Rivojlanish Hamkorligi Xizmatining Servis-Ta'lim Loyihasini amalga oshirish natijasida paydo bo'ldi. Ushbu universitetda tashkil etilgan yuridik klinikalar talabalarning aniq amaliy mashg'ulotlarini ularning ijtimoiy majburiyatlari bilan bog'lash, o'qish davomida olgan bilimlarini qo'llash va to'ldirish, ko'nikmalarga ega bo'lishga ko'maklashish va fuqarolarga bepul huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida faoliyat yuritadi.

ICADE yuridik klinikasi bilan hamkorlik qilishning ko'plab usullari mavjud:

Agar siz TALABA bo'lsangiz, unga a'zo sifatida fuqarolarga bepul huquqiy yordam ko'rsatish va siz har qanday hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish orqali hamkorlik qilishingiz, shuningdek ma'lumot olishingiz mumkin.

Agar siz hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan HUQUQ FIRMASI bo'lsangiz, bizga o'zingizning ixtisoslashgan yo'nalishlaringiz va pro bono faoliyati to'g'risida xabar berishingiz mumkin.

Agar siz BITIRUVCHI bo'lsangiz, «Street Law» loyihasi dasturida o'qituvchi sifatida hamkorlik qilishingiz mumkin.

Agar siz LEKTOR bo'lsangiz, siz turli xil o'quv dasturlari yoki o'quv qo'llanmalarida hamkorlik qilishingiz mumkin.

Toshkent davlat yuridik universitetida tashkil etilgan yuridik klinika 20 yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. U talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlash, talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga beg'araz yuridik maslahatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu yuridik klinikada murojaatlar bevosita hamda online tarzda ham qabul qilinadi, "Street Law" loyihasi ham faoliyat yuritadi.

#### **1.4. Yuridik klinik ta'limni amalga oshirish usullari: AQSH tajribasi**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yuridik klinik ta'limning to'rtta asosiy usuli mavjud: yuridik klinikadagi faoliyat; simulya usuli; yuridik amaliyot; va street law. Qo'llanmaning ushbu qismida yuridik klinikaning vatani hisoblangan Amerika Qo'shma Shtatlarida ushbu usullardan foydalanilish tajribasi haqida qisqacha to'xtalamiz. Yuridik klinik ta'limning yuqorida ta'kidlangan usullarining har biri o'zining afzallik va kamchilik tomonlariga ega. Aksariyat yuridik ta'lim muassasalarida mazkur usullarni bir-biriga bog'lab o'rganishga, ya'ni usullar kombinatsiyasi orqali ta'lim berishga e'tibor qaratiladi.

##### **1.4.1. Garvard huquq maktabi (GHM)**

Garvard huquq maktabining klinikaviy va pro bono tamoyiliga asoslangan dasturlari huquqiy tajriba uchun keng yo'lak vazifasini o'taydi. Universitetda quyidagi klinikalar mavjud:

1. In-house clinics
2. Externships
3. SPO (student practice organizations)

Shuningdek, talaba o'zining mustaqil klinika yoki pro bono loyihasini tashkil etishi mumkin.

Quyida GHM klinikalari a'zolik tartib-qoidalari bilan tanishamiz.

1-kurs talabalari:

- SPOga a'zo bo'lishadi. SPO – bu talabalar kengashi (2-3-kurs talabalari) tomonidan yurgiziladigan tashkilot, biroq universitet hodimi bo'lgan huquqshunoslar tomonidan ko'maklashish va yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida nazorat qilinadi. SPO tarkibida 11ta dastur va loyihalar tashkil etilgan bo'lib, jumladan, Garvard mediatsiya dasturi, Garvard huquq maktabi muzokarachilari, Ijara advokatlik loyihasi va boshqalar. SPOga a'zo bolish uchun tashkilot tomonidan o'tkaziladigan treninglarni tamonlash talab etiladi xolos. SPO dasturlarida qatnashganlik uchun alohida kredit hisoblanmaydi, biroq Garvard huquq maktabining 50 soat pro bono amaliyotini o'tash talabi uchun hisobga olinadi.
- GHM pro bono krediti uchun mustaqil ravishda huquqiy tashkilot yoki huquqshunoslik firmasining litsenziyaga ega advokati yoki GHMning amaliyotchi a'zosi nazorati ostida ishlashi mumkin.
- GHMning bahorgi ta'til mobaynidagi pro bono sayohatida qatnashishi mumkin. Bu sayohat davomida talabalar Boston yoki AQSH bo'ylab kamida besh kun davomida bepul huquqiy ko'mak berish bilan shug'ullanadilar.

Ikkinchi va uchinchi kurs talabalari:

- Yuqoridagi faoliyatlarni davom ettirishadi, shuningdek:
- Bitta klinikaga a'zo bo'lishlari mumkin. GHMda 23ta in-house klinikalari va 15ta externship klinikalari mavjud. Klinikaga a'zo bo'lish jarayoni har yili bahorgi semestrda amalga oshiriladi. Shu o'rinda in-house va externship klinikalarga to'xtalib o'tsak:
- In-house clinics – 23ta GHM kampusida joylashgan ichki klinikalar 19ta huquq professorlari va 70dan ziyod klinika instukturari tomonidan ta'lim beriladi. Har bir klinikada olingan tajriba amaliy muammolar va qonunning jihatlarini muhokama qilishga bag'ishlangan bahslar bilan mustahkamlanadi.

- Externship clinics – 15ta turli klinikalardan iborat bo`lib, butun AQSH bo`ylab davlat agentliklari va tashkilotlarida amaliyot o`tashni taklif etadi. Bu klinikalar fakultet yoki tajribalari litsenziyali huquqshunoslar tomonidan o`qitiladi.
- SPOda yetakshilik lavozimlarini bajarishi mumkin.

Garvard huquq maktabini tamomlash uchun barcha talabalardan 50 soatlik pro bono ish talab etiladi. Pro bono kliniklari va SPO bu talabni bajarish uchun xizmat qiladi.

Mustaqil klinika dasturlari – talaba biror ixtisoslashgan sohaga qiziqsa va bu amaldagi GHMning mavjud klinika va pro bono tizimida mavjud bo`lmasa talabaga o`z klinikasini ochish imkonini beradi. 2-3- va magistratura talabalari kuzgi, qishgi va bahorgi semestrlar davomida mustaqil loyihalari bilan shug`ullanishlari mumkin.

#### **1.4.2. Yale universiteti huquq maktabi yuridik klinkasi**

**Yale universiteti huquq maktabi yuridik klinkasi** - dunyoda huquq maktablari orasida 1-o`rinda turadi. Unda 30 dan ortiq yuridik klinikalar tashkil etilgan, ular talabalarga huquqning turli yo`nalishlarida amaliy tajribani taqdim etadi.<sup>3</sup> Jumaladan:

**Oliy jazo klinikasi.** Talabalar avgust oyida Atlantadagi Inson huquqlari bo`yicha Janubiy markazda yoki Montgomerida ikki-uch hafta amaliyot o`tkazadilar, u yerda advokatlar, tergovchilar va oliy jazo bo`yicha sud ishlarida ish olib borish bo`yicha mutaxassislar bilan uchrashadilar va o`lim jazosiga hukm qilingan shaxslar uchun sudda himoyachi bo`lib qatnashishlari mumkin.

**Jinoiy adliya bo`yicha advokatlik klinikasi.** Jinoiy adolatni targ`ib qilish klinikasi talabalari jinoiy-huquqiy tizim ta`sirida bo`lgan shaxslar va tashkilotlarga huquqiy yordam ko`rsatadi. Klinika faoliyati siyosat va jamoatchilikni himoya qilish, to`g`ridan-to`g`ri vakillik bo`yicha sudda qatnashish jarayonlarini o`z ichiga oladi.

**Atrof-muhitni muhofaza qilish klinikasi.** Atrof-muhitga oid qonunlar va siyosat muammolarini atrof-muhit guruhlari, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlar kabi mijozlar tashkilotlari nomidan hal qiladigan fanlararo klinikadir.

**Uy-joy klinikasi.** Uy-joy klinikasi talabalarga uy-joy bilan bog`liq bir qator huquqiy masalalar, shu jumladan ijaraga olish, ko`chirish va uy-joy qurilishining adolatli siyosati bo`yicha tajriba orttirishga imkon beradi.

#### **1.4.3. Auditoriyada sahnalashtirish**

Amerikaning deyarli barcha huquqshunoslik maktablarida daralar talabalar yuridik amaliyotda uchraydigan haqiqiy hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali o`tkaziladi. Ushbu mashg`ulotlar odatda sud jarayoni, apellyatsiya shikoyatlarini ko`rib chiqish, muzokaralar, vositachilik, hakamlik sudlari, murojaatchilar bilan suhbatlashish va yuridik maslahat berish kabi mavzular doirasida o`tkaziladi.

Ushbu mashg`ulotlar davomida o`qituvchi talabalarga sud majlisida murojaatchini so`roq qilish, munozaraga chiqish kabi ba`zi yuridik harakatlarning bajarilishiga oid kirish materiallari va/yoki ma`ruzalarni taqdim qiladi. O`qituvchi talabalar uchun berilgan muammoli vaziyatni tavsiflaydi, talabalar esa protsessdagi turli xil rollarni bajaradilar, masalan, advokatlar, murojaatchilar va boshqalar. O`qituvchi har bir talabaning faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini baholaydi. Sahnalashtirish kursining oxiriga kelib, o`qituvchi ko`pincha talabalar oldiga qiyin muammoli vaziyatlar qo`yadi, ularni hal qilish xuddi huquqshunoslik kursini tugatib keng qamrovli sud jarayonini o`tkazish singari ko`p qirrali huquqiy ko`nikmalarni talab qiladi.

<sup>3</sup> Batafsil ma`lumot uchun qarang: <https://law.yale.edu/clinics/our-clinics>

Sahnalashtirishning afzallik tomoni shundaki, u orqali yuridik klinik ta'limning birinchi maqsadi «vazifalarni qanday qilib amalga oshirish»ni talabalarga o'rgatish mumkin. Bunday vaziyatda sodir etilayotgan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Ular tomonidan talabalarda muayyan ko'nikmalarni shakllantiradigan, huquqiy holatlar va protseduralarni o'rgatadigan vazifalar tayyorlab boriladi. Keng ko'lamli sud protsesslarini o'tkazish kabi murakkab mashqlar yurist amalda duch kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur usulni qo'llash muayyan ko'nikmalar bo'yicha muntazam va batafsil o'qitish uchun eng yaxshi imkoniyatni taqdim etadi.

Sahnalashtirish darslarida huquqshunos yordamiga muhtoj bo'lganlarga yuridik xizmat ko'rsatiladi va bu real hayot bilan hech qanday aloqaga ega emas, bu yuridik klinik ta'limning biz yuqorida ko'rib chiqqan uchinchi maqsadini shakllantiradi. Bunday mashg'ulotlar auditoriya bilan cheklanganligi sababli, talabalar yuridik klinik ta'limning to'rtinchi maqsadi bo'lgan ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarni targ'ib qilish uchun oz bo'lsa-da harakat qilishadi.

Aytish mumkinki, sahnalashtirish darslari huquqiy ta'lim berish uchun juda foydali vosita hisoblanadi. Biroq mazkur usul yuridik klinik ta'lim berishda yakuniy va yagona hisoblanmaydi.

#### **1.4.4. "Haqiqiy murojaatchilar" klinikasi**

Bugungi kunda ko'pgina davlatlarda yuridik oliygohlarning aksariyati o'z talabalariga "haqiqiy murojaatchi"lar klinikasini taklif qilishmoqda. Ushbu usul bilan talabalar amalda yuridik muammolari bo'lgan murojaatchilar bilan bevosita uchrashish, muloqot qilish, ularning muammolarini o'rganish va ularga huquqiy yordam berish imkoniga ega bo'ladi. Amerika Qo'shma Shtatlarining yuridik maktablarida haqiqiy murojaatchilar bilan ishlash klinikalarining ikki asosiy turini uchratish mumkin. Bular umumiy amaliyot klinikalari va ixtisoslashgan klinikalar.

##### **1. Umumiy amaliyot klinikasi**

Umimiy amaliyot klinikalari yuridik klinika g'oyasi paydo bo'lgan ilk bosqichlardan boshlab keng tarqalgan. Hozirgi kunda ham yuridik klinika endi tashkil etilgan oliygohlarda dastlab umumiy amaliyot klinikasi faoliyati yo'lga qo'yiladi. 2000 yilda O'zbekistonda tashkil etilgan ilk yuridik klinikalar ham aynan umumiy amaliyot klinikasi sifatida o'z faoliyatini boshlagan.

Bunday klinikalar biror bir muayyan sohaga ixtisoslashmagan holda har qanday huquqiy masala bo'yicha murojaat etgan fuqarolarga bepul huquqiy maslahat beradi. Tegishincha, bunday klinikalarda huquqning imkon qadar har bir sohasi bo'yicha yetarli malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar va shu sohalarda tehsil oluvchi talabalar bo'lishi talab etiladi. Bunday klinikalarga asosan xususiy advokatlik firmalaridan huquqshunos yollashga qodir bo'lmagan shaxslar murojaat qilishadi.

Umumiy amaliyot klinikasining afzalligi shundaki, talabalar turli huquq sogasiga tegishli haqiqiy holatlarni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ayniqsa ta'lim jarayonidan so'ng amaliy huquqiy faoliyat ko'rsatish istagida bo'lgan talabalar uchun muhimdir. Mazkur klinikalar talabalarga huquqning yangi sohaslarini tezda o'zlashtirishni o'rganishda yordam beradi. Bu talabalarga ishni boshidan oxirigacha ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Ular oilaviy ishlar, farzand asrab olish, vasiyatnomalar, iste'molchilarga oid sud ishlari, kichik jinoiy ishlar, o'lim jazosiga oid ba'zi shikoyatlar va boshqa ko'plab murojaatchilar advokatlik haqini to'lay olmaydigan ishlarni ko'rib chiqishadi.

## ***2. Ixtisoslashgan klinikalar***

Ixtisoslashgan klinikalar yuridik klinik ta'lim rivojlanishining mahsuli bo'lib hisoblanadi. Masalan 1931 yilda AQSHning Duke Universitetida tashkil etilgan dunyodagi ilk yuridik klinika dastlab umumiy amaliyot klinikasi sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, bugungi kunga kelib mazkur universitetda o'ndan ortiq ixtisoslashtirilgan klinikalar tashkil etilgan. Bular asosan bola huquqlariga klinikasi, apellyatsiya ishlarini yurituvchi klinika, fuqarolik ishlari bo'yicha klinika, kichik biznesga mo'ljallangan klinika, ekologiya va atrof-muhit klinikasi, immigrantlar klinikasi, tibbiyot huquqiga oid klinika va boshqalardan iborat.

Xuddi shunday ixtisoslashgan klinikalarni AQSHning boshqa universitetlarida hma uchratish mumkin. Masalan, Sietldagi Vashington shtat universiteti mahalliy jamoat himoyachilari idorasidan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyi ishlarga ixtisoslashgan. Jorjtaun universiteti o'z klinikasida faqat apellyatsiya murojaatlarini ko'rib chiqadi; ba'zi universitetlarda mediatsiya, hakamlik sudlari va nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa usullari bo'yicha klinikalar faoliyati ishlab chiqilmoqda. Oregon shtati universiteti klinikasi esa atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilikka oid ishlarni ko'rib chiqadi. Boshqa ko'plab klinikalar fuqarolik huquqlari, ayollar huquqlari yoki aqliy zaiflik bilan bog'liq ishlar va boshqalarga ixtisoslashgan.

“Haqiqiy murojaatchilar” klinikasini sahnalashtirish darslari bilan birlashtirish talabalarga yuridik kasbning ko'plab jihatlarini o'rgatishning samarali usuli hisoblanadi. Masalan, ko'plab yuridik ta'lim muassasalarida talabalarga advokatlik yuridik mahorati o'qituvchilar tomonidan tuzilgan vaziyatlar orqali o'rgatiladi, bu orqali ular sud protsessida haqiqiy vaziyatga duch kelganida sud jarayonlarida ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunda ayrim universitetlar ta'lim jarayonini butun o'quv semestri davomida o'tkaziladigan uzluksiz dars shaklida tashkil etsa, ayrimlari bir hafta yoki undan kam davom etadigan intensiv kundalik sud-ekspertiza mashg'ulotlari sifatida tashkil qilinadi. Bundan tashqari, ko'plab yuridik ta'lim muassasalarida tashkil etilgan klinikalarda talabalar real murojaatchilar bilan ishlashdan oldin trening tarzida sahnalashtirilgan murojaatchilar bilan suhbatlashish, ularga maslahatlar berish, asosiy huquqiy hujjatlarni tayyorlash va bir qator amaliy ishlarni o'z ichiga olgan uquv amaliy jarayondan o'tishlari shart, shundagina ular haqiqiy murojaatchilar klinikasida ishtirok etishi mumkin.

Haqiqiy murojaatchilar bilan ishash klinikalari talabalarga huquqshunoslik kasbiga bo'lgan qarashlarini shakllantirishda yordam beradi. Bunday jarayonlarda o'qituvchining roli juda muhim. Ular muammoli vaziyatlarda talabalarga to'g'ri yechim topishda ko'maklashadi, ularning yordamisiz talaba real murojaatchi va uning muammosi bilan ishlashda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Talabalarni bunday qiyinchiliklarga oldindan tayyorlash maqsadida o'qituvchilar tomonidan talabalarga ular duch kelishi mumkin bo'lgan qiyin muammoli holatlar taqdim etiladi. Ushbu yondashuv talabalarga kelajakdagi faoliyatlarida duch kelishi mumkin bo'lgan yanada murakkab muammolarni to'g'ri baholay olishga yordam beradi.

Ko'plab yuridik klinikalar dasturlari talabalar uchun tizimli ravishda tashkil etiladigan auditoriyadagi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi va ularda murakkab amaliy vaziyatlarning huquqiy tomonlari muhokama qilinadi.

Haqiqiy murojaatchilar bilan ishlaydigan klinikalar o'z talabalariga sud ishlarini yuritish va qonun ijodkorligi jarayonida qatnashish uchun imkoniyat yaratib berishi ham mumkin. Bunday harakatlardan o'qituvchi va talabalarining shaxsiy manfaatlari emas, balki jamiyat hayotiga ijobiy ta'sir qilish ko'zlangani ijobiy holatdir. Bu kabi amaliyot talabalarga hamkasblari tajribasidan foydalanish, huquqshunoslar jamoasida ishlash va to'plangan ma'lumotlarni birgalikda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, talabalar klinikaga kelgan murojaatlar bo'yicha o'qituvchilar tomonidan muhokama qilinayotgan murakkab vaziyatlarni kuzatib borish orqali tajriba orttirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Haqiqiy murojaatchilar bilan ishlovchi yuridik klinikalarda o'qituvchilarning ishtirokiga ham to'xtalib o'tish joiz. Klinikada faoliyat ko'rsatish kishidan juda katta kuch va ko'p vaqt ajratishni talab qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ko'plab yuridik klinikalarda har bir o'qituvchiga o'quv yuki sifatida 8 ta talabadan iborat jamoa birlashtiriladi. Boshqa klinikalarda esa bu raqam mos ravishda 10-12 ta, bazi klinikalarda esa ko'pi bilan 4 tani tashkil qiladi.

#### **1.4.5. Amaliyot dasturi – yuridik faoliyat bilan shug'ullanuvchi idoralardagi amaliyot**

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ko'plab klinikalar tomonidan talabalarga huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va advokaturalarda bepul amaliyot o'tash imkoniyati taqdim etiladi. Bu odatiy amaliyot dasturi hisoblanadi. Talabalar sudlarda, prokuraturada va vazirliklarning yuridik bo'limlarida, atrof-muhitni yoki fuqarolik huquqlarini muhofaza qilish tashkilotlarida, shuningdek, xususiy notijorat tashkilotlarida amaliyot o'tashlari va mehnat qilishlari mumkin. Qoidaga ko'ra xususiy yuridik tashkilotlardagi amaliyot mehnat faoliyati hisoblanmaydi.

Mazkur usulning afzallik tomoni ularda talabalarga xilma-xil intensiv ishlar taqdim etilishi hisoblanadi. Ko'plab yuridik dargohlarda talabalar amaliyot o'tash uchun yuridik tashkilotlarni tanlashda katta imkoniyatga ega. Amaliyot jarayoni asosan kunduzgi vaqtda davom etishi va uni o'tash vaqtida darslarga qatnashish imkoniyati yo'qligi sababli talabalar ta'lim muassasasi joylashgan hududdan tashqarida ham amaliyot olib borishlari mumkin. Talabalar amaliyot dasturini to'liq o'z ixtisosliklari doirasida olib borishlari mumkin.

Shuningdek, haqiqiy murojaatchilar bilan ishlovchi klinikalarda ularning dasturiga kiritilmagan huquq sohasida amaliyot o'tashga ham ruxsat beriladi.

Mazkur amaliyot turning salbiy tomoni unda talabaning faoliyati doim ham o'qituvchi nazorati ostida bo'lmaydi. Talabalarni amaliy faoliyatga o'rgatuvchilar o'qituvchilar emas, balki klinika xodimlari hisoblanadi. Ular esa talaba tomonidan muhim tajriba orttirilishiga emas, asosan, ular bajaradigan ishning hajmiga e'tibor qaratadi. Natijada, talabalar amaliyot vaqtida advokatlik faoliyatiga doir tizimli ishlar bilan shug'ullanmaydi va advokatlik faoliyatining mohiyatini to'liq anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Amaliyot vaqti shunchaki klinika xodimining ish jarayonini kuzatish va ularning harakatlarini qaytarish bilan besamar o'tadi. Ish samarali tashkil etilgan yuridik klinikalarda bunday holatlar alohida nazoratga olinib, imkoni boricha talabaning klinika orqali amaliy ko'nikmalarni egallashi va rivojlantirishi uchun sharoit yaratib beriladi.

Talabalar amaliyot o'tash joyini jiddiy e'tibor bilan tanlashlari lozim, bunda universitet tomonidan ishlab chiqilgan amaliyot dasturi ularga qo'l keladi. Talabalar o'zlari uchun katta qiziqish uyg'otadigan ishlarni tanlashlari lozim, shunda berilgan topshiriqlarning miqdori va ko'lami qanchalik keng bo'lmasin, ish yuritish jarayonini o'rganishga to'siq bo'la olmaydi. Amaliyot joyini tanlashda huquqshunosning talabaga yuridik xizmatlarni o'rgatishga bo'lgan xohishi ham hisobga olinishi kerak. Amaliyotni boshqaruvchi advokat va talaba o'rtasidagi do'stona munosabatlar amaliy vazifalarni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

#### **1.4.6. Xulosa**

Hozircha hech bir yuridik klinik ta'lim usuli yuridik klinika oldida turgan vazifalarni bajarishga to'liq javob beradigan darajada shakllanmagan. Haqiqiy murojaatchilar bilan ishlovchi va sahnalashtirish usullaridan foydalanuvchi klinikalar faoliyatini o'zaro bog'liq holda tashkillashtirish klinik dasturlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga erishish uchun nisbatan yaxshiroq usul hisoblanadi. Ta'lim muassasasi rahbari boshchiligida puxta ishlab chiqilgan amaliyot dasturlari talabalarga turli xil huquqiy tajribalardan



foydalanish imkoni beradi. Har qanday klinik ta'lim dasturi o'z maqsadlariga erishishda eng yaxshi usulni tanlash uchun doimiy tarzda faoliyatini baholab borishi lozim.

### **1.5. Yuridik klinik ta'limning majburiyigi**

Ba'zi universitetlarda talabalar yuridik klinikalari (Yuridik klinikalar) «Yurisprudentsiya» mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan barcha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv, tanishtirish va amaliy mashg'ulotlarning majburiy shakli sifatida tashkil etilgan. Ushbu nuqtai nazar konstruktiv emas va yuridik klinikalarning funksiyalarini amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va yuridik klinikalarni keyingi rivojlanishi uchun salbiy oqibatlariga olib keladi.

**Birinchi**dan, majburiy amaliyotni yo'lga qo'yish natijasida Yuridik klinikaning maslahatchilari ko'payadi. Buning uchun klinikalar rahbarlari ushbu muammoni hal qilish choralarini ko'rishni talab qiladi. Bundan tashqari, maslahatchilar sonining ko'payishi maslahat so'raydiganlar sonining ko'payishini anglatadi. Ushbu natijani oliy o'quv yurtlarida talabalar yuridik maslahatlari mavjudligi to'g'risida aholini xabardor qilish vositalarini ishlab chiqish orqali olish mumkin. Universitetlarda yuridik klinikalar mavjudligi to'g'risida aholini xabardor qilish har doim talab qilinardi, ammo hozirgi vaziyat yangi PR texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi.

**Ikkinchi**dan, yuridik klinikalar oliy o'quv yurtlarida amaliyotning ixtiyoriy shakli sifatida majburiy mavjudligini hisobga olgan holda, ular ta'lim muassasasining ajralmas qismidir. Agar biron bir oliy ta'lim muassasasi shu tarzda «Huquqiy klinikasi» uchun «reklama kampaniyasini» boshlasa, bu muassasani reklama qilsa, bu boshqa oliy o'quv yurtlarining javobiga sabab bo'ladi. Raqobat juda kamdan-kam hollarda, aholiga ko'rsatiladigan konsalting xizmatlari sifatini oshirish sabablaridan biri bo'lishi mumkin, ammo bu hanuzgacha ma'lum bir hudud doirasida yuridik klinikalarning o'zaro hamkorligi uchun to'siq bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida talabalar yuridik maslahatlarini yanada rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

**Uchinchi**dan, reklamaga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, yuridik maslahatlar ta'lim faoliyatining shakli sifatida va aholining yuridik yordamga bo'lgan ehtiyojini qondirish shaklining orqada qolishi mumkinligiga olib keladi. Universitetning yuridik klinikasi mavjudligi va u qanday ishlashini emas, balki uning yuridik klinikasi to'g'risida aholining necha foizini xabardor qilishi universitet rahbariyati uchun muhimdir. Shunday qilib, yuridik klinikalar fantastika bo'la boshlaydi, bu universitet uchun reklama kampaniyasi bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, ular umuman ishlamaydi yoki haftada bir marta ishlaydi, shu bilan birga na tarbiyaviy, na ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

**To'rtinchi**dan, masalani konsultantlar soni bilan hal qilish konsultantlarni guruhlariga birlashtirish orqali mumkin. Guruh ishi guruhning har bir a'zosining o'z ishiga bo'lgan qiziqishini va shaxsiy ishtirokini nazarda tutadi. Shu bilan birga, talabalar yuridik konsultatsiyalarida o'quv, tanishish va ishlab chiqarish amaliyotidan o'tish majburiyati talabalarni klinik faoliyatga qiziqmaydigan ishlariga jalb qiladi. Ushbu talabalar guruhlariga yozilishadi, ammo guruhlarda rasmiy qatnashish hech qanday bilimga ega bo'lmaydi.



## 2-BOB. YURIDIK KLNIKADA MUROJAATCHILARNI QABUL QILISH



## 2-BOB. YURIDIK KLINIKADA MUROJAATCHILARNI QABUL QILISH

Talabalar tomonidan yuridik klinika jamoat qabulxonasida faoliyat ko'rsatish eng keng tarqalgan klinik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Haqiqatdan ham haqiqiy murojaatlar ustida ishlanmasa klinika o'z oldiga belgilagan maqsadlariga erisha olmaydi. Talabalarning murojaatlar bilan ishlash jarayoni turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda simulyatsion klinikalarida shartli ravishda faqat o'ylab topilgan vaziyatlar muhokama qilinadi. Ushbu darslarda talabalar sud jarayonida turli vazifalarni bajarish orqali huquqshunoslik faoliyatini o'rganadilar. Haqiqiy murojaatchilar bilan ishlash klinikalarida talabalar jamoatchilik qabulxonasida real murojaatchilarga duch kelishadi. Ushbu bobda talabalarning klinika qabulxonasidagi faoliyatini qay tarzda tashkil qilish kerakligi to'g'risida so'z boradi.

### Talabaning qabulxonadagi vazifasi quyidagilardan iborat:

- Dastlab murojaatchi qabul qilinadi va u bilan intervyu amalga oshiriladi.
- Murojaatchining muammolari aniqlanadi va ularga yechim topiladi.
- Muammaolarga topilgan huquqiy yechim bo'yicha murojaatchiga maslahatlar beriladi.

Haqiqiy murojaatchi bilan ishlash nafaqat huquqshunoslik mahoratini oshirishga, balki murojaatchiga eng avvalo ijtimoiy, psixologik yordam ko'rsatishga ham yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki klinikaga murojaat etgan shaxslarning muammosi kamdan-kam holatda sof huquqiy xarakterga ega bo'ladi. Odatda murojaatchining muammosi ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va boshqa ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu holat talabalarga klinika qabulxonasidagi ish jarayoniga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarurligini anglatadi va ular tomonidan sifatsiz yuridik xizmat ko'rsatishga yo'l qo'yib bo'lmasligini, bu esa klinikada faoliyat ko'rsatishning ham o'z tartib-qoidalari mavjudligini ko'rsatadi.

Klinika rahbari birinchi navbatda talabaning murojaatchilar bilan ishlashga qay darajada tayyor ekanligini hisobga olishi lozim. Aksariyat yuridik klinikalarda murojaatchilar bilan suhbatlashish va maslahat bera olish, ishni tahlil qilish, yuridik hujjatlarni rasmiylashtirish va shu kabi boshqa yuridik harakatlarni amalga oshirish kurslarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan talabalargina jamoat qabulxonasida faoliyat yuritishiga va o'z ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga ruxsat etilishi qoida qilib belgilangan.

Kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan talabalar klinikaning jamoat qabulxonasiga yuboriladi. Bu yerda murojaatchi bilan suhbatlashish orqali uning muammolari va u bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega bo'lgan holatlar, murojaatchining xohish-istaklari aniqlanadi.

### 2.1. Yuridik klinikada murojaatchilarni qabul qilish

Yuridik klinikada murojaatchilarni qabul qilish bepul huquqiy maslahat berish jarayonining dastlabki boshqichi hisoblanib, klinikada faoliyat yurituvchi talabalar huquqiy maslahat berishdan oldin fuqarolarni qabul qilish, ular bilan suhbatlashish (intervyu uktazish), ularni eshita olish, ularning muammolarini tahlil qilish va murojaatdagi huquqiy muammoni aniqlay olish kabi ko'nikmalarni egallashlari kerak.

**Suhbatlashish** - bu murojaatchi bilan ishlashning dastlabki bosqichida talaba duch keladigan ilk jarayondir. Suhbat jarayoni klinikaning har bir a'zosi rioya qilishi lozim bo'lgan bir necha bosqichda o'tkaziladi, har bir bosqich o'ziga xos vazifalarga ega va muayyan qoidalar asosida o'tkaziladi.

Klinika talabalarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlashi professional huquqshunoslar va advokatlar yuritadigan ishlar bilan bir xil darajada muhim hisoblanadi. Shuni inobatga olib, quyida klinika talabalari

tomonidan murojaatchini qabul qilish va fuqarolar bilan bilan suhbat o'tkazish (intervyu utkazish) jarayonini bosqichma-bosqich muhokama qilamiz.

### **Murojaatlar bilan ishlash jarayoni**

Klinikada faoliyat ko'rsatuvchi talaba ishni asosan murojaatchi bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish, u bilan suhbatlashish va maslahatlar berishdan boshlaydi. Suhbatlashish har qanday advokatlik faoliyatining ajralmas qismidir.

Murojaatchi bilan ish doirasida munosabat o'rnatish katta ahamiyatga ega. Talabaning murojaatchi bilan ilk uchrashuvi butun suhbat jarayoniga ta'sir qiladi. Ishga tayyorgarlik ko'rish, murojaatchi bilan qachon qanday holatda ko'rishish maslahatlashuv jarayonining keyingi bosqichlariga albatta ta'sir qiladi.

Murojaatchi bilan belgilangan uchrashuvga kechikish, ishga beparvolik bilan qarash, o'zgaruvchan bo'lish va noaniq maslahatlar berish murojaatchining bunday yuridik klinika haqida salbiy fikrga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunda murojaatchilarni qanday muhitda qabul qilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Yuridik klinikadagi faoliyat murojaatchilarda talabaning ishiga ishonch yaratishga xizmat qilishi lozim. Murojaatchining klinikada talaba tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar muayyan bilimlar va yuridik ko'nikmalar asosida taqdim etilishiga, talaba unga malakali yuridik yordam ko'rsatishni xohlayotgani va buni uddalay olishiga bo'lgan ishonch hosil qilishi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Advokat har qanday sharoitda ham o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi kerak bo'lganidek, klinikada murojaatchini qabul qilayotgan talaba ham o'ziga ishonchi bo'lishi kerak. Albatta bu ishonch muayyan bilim va malaka asoslangan bo'lishi lozim. Murojaatchi o'ziga talaba tomonidan xizmat ko'rsatilayotganligini bilishi va bu jarayon o'qituvchi nazorati ostida ekanligini bilishi lozim. Klinikada talaba tomonidan tayyorlangan yozma maslahatlar va hujjatlarni taqdim etishdan oldin ular o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqilishi lozimligi haqidagi qoidalar ham yuqoridagi talablar qondirilishi uchun xizmat qiladi.

Murojaatchi o'z muammosini bayon qilishdan oldin uni qabul qiluvchi talab unga qator ma'lumotlarni etkazishi kerak. Jumladan:

- fuqaro advokatlik firmasiga emas, universitet huzurida tashkil etilgan yuridik klinikaga murojaat etganligi;
- bu erda professional advokatlar emas, balki muayyan tayyorgarlikdan o'tgan talabalar tomonidan o'qituvchi nazorati ostida bepul huquqiy maslahat berilishi;
- murojaatchining shaxsi, klinikaga murojaat etganlik fakti va murojaatining mazmuni sir saqlanishi;
- huquqiy maslahatlar tegishli hujjatlar va qonunchilik normalari o'rganilgandan keyin bir hafta ichida taqdim etilishi;
- agar murojaatchining murojaati amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar, tartiblar va muddatlarda rad etilishi mumkinligi.

Bu oddiy qoidalarni suhbatning boshida tushuntirilishi murojaatchi shaxs va yuridik klinika o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldini oladi va talaba tahsil oladigan ta'lim muassasasining obro'siga va faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, yuridik klinikani "bepul advokatura" deb kelishgan ayrim murojaatchilar uchun suhbatning boshida ularga talabalar tomonidan huquqiy maslahat berilishining tushuntirilishi ikki tomonligi ham vaqtini va asabini tejaydi.

Biz "Murojaatchi bilan suhbatlashish" deb qo'llayotgan atama butunjahon advokatlari va huquqshunoslari tomonidan "intervyu o'tkazish" so'zi bilan ifodalanadi. Butun dunyo advokatlari va huquqshunoslari murojaatchi bilan suhbatlashish deganda undan huquqiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni olish jarayonini tushunadilar.

Yuridik klinika volontyorining murojaatchi bilan suhbatlashish va maslahat berish jarayonini bir-biridan ajratish lozim. Ular murojaatchining muammolarini qonuniy asoslarda huquqiy jihatdan hal qilish uchun qo'llaniladigan alohida usullar hisoblanadi. Shu tufayli mazkur qo'llanmada maslahat berish jarayoni uchun alohida bob ajratilgan. Suhbatlashish va maslahat berishning farqini anglash uchun jarayonlardan ko'zlagan maqsadlarini hisobga olish lozim.

**Suhbat o'tkazishdan maqsad** murojaatchidan yuridik ahamiyatga ega holatlar haqida ma'lumot olish bo'lin hisoblanadi. Maslahatlar berish jarayoni esa murojaatchiga muammolarni hal qilishning usullarini tushuntirish, bu usullardan foydalanish orqali erishilishi mumkin bo'lgan natija haqidagi taxminlarini bildirish va muammoni hal qilishning eng maqbul usulini tanlashda ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Muloqot qilish har qanday huquqshunosning yuridik faoliyatidagi ajralmas jarayon hisoblanadi. Ammo mazkur kitobda suhbatlashish jarayonining ko'proq yuridik klinika talabalari va bo'lajak huquqshunoslar faoliyati uchun ahamiyati haqida so'z boradi. Buning sababi shundaki, talabaniing muloqot o'tkazish ko'nikmalari suhbat jarayonida muhim amaliy ko'nikma sanaladi. Bunday ko'nikmalar ko'p jihatdan talabaniing yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha keyingi faoliyatining qay darajada muvaffaqiyatli bo'lishini belgilab beradi.

Yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxs klinika volontyoriga o'zining muammolari haqida imkon qadar to'liq va batafsil aytib bermasa, klinika talabasi bu holda qanday yo'l tutish kerak?

Eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, klinikaga murojaat qiluvchi shaxslarni qabul qilish uchun talabada nazariy bilimning borligi kamlik qiladi. Bu uchun talaba muayyan amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishi kerak. Qolaversa, yuridik klinikaga murojaat etadigan fuqarolar odatda turli ruhiy-psixologik holatda kelishlari, bunday holatda ularga huquqiy yordamdan oldin psixologik yordam zarurligini inobatga oladigan bo'lsak, bunday amaliy ko'nikma keng qamrovli bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Yuridik maslahat so'rab murojaat qiladigan shaxslar odatda hayot qiyinchiliklariga duch kelgan insonlar bo'lib, mutaxassisga murojaat qilmasdan o'z muammolarini hal qila olmaydilar. Ular ushbu qiyinchiliklarni va ularning oqibatlarini yengib o'tish usullari haqida ozgina tasavvurga ega, xolos. Ular o'zlari uchun begona hisoblangan klinika volontyori bilan muloqot qilishga, aksariyat hollarda o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ular turli madaniy darajadagi, turli millat va elat vakillari bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularning barchasi ham o'z muammolaridagi huquqiy jihatlarni alohida ajratib ko'rsata olmaydi va klinika volontyoriga izchil ravishda ish uchun muhim bo'lgan faktlarni taqdim eta olmaydi. Shunday vaziyatda klinika volontyori turli toifadagi odamlarning muammolariga huquqiy baho berish uchun muloqot orqali ulardan to'liq va ishonchli ma'lumotlar olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ushbu ko'nikmalarni bir necha jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, intervyu o'tkazishda yuridik axloq qoidalarining umumiy masalalarini inobatga olish. Ikkinchidan, suhbat jarayonini yanada samarali o'tkazishga yordam beradigan bosqichlarga ajratib olish. Uchinchidan, suhbat davomida savol berish usullariga e'tibor qaratish, bunda mashhur "voronka (funnel)" xronologik savol-javob usulini qo'llash. Va nihoyat to'rtinchidan, suhbatning psixologik jihatlarini hisobga olish lozim.



## 2.2. Murojaatchi bilan uchrashuvga tayyorlanish

Yuridik klinikaga bepul huquqiy maslahat olish maqsadida murojaat etgan fuqaro bilan suhbat o'tkazish uchun avval unga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim. Talabalarning muloqot jarayoniga tayyorlanishi o'zlarini va ish joyini tayyorlashdan boshlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, murojaatchining talaba va u faoliyat yuritadigan klinika haqidagi fikri klinikaga qadam qo'yishi bilanoq shakllana boshlaydi. Uning ilk fikrlari muammoni hal qilishda o'rnatiladigan psixologik aloqalarga ham ta'sir qiladi.

Ko'plab yuridik klinikalarda talabani suhbatga tayyorlash uning ish joyi va tashqi ko'rinishini tayyorlash bilan cheklanib qolmaydi. Klinikada oldindan ro'yxatdan o'tish tizimi mavjud bo'lishi mumkin, bu esa talabaga qaysi fuqaro qachon va qanday muammo bilan kelishini oldindan bilish hamda bo'lajak uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish, qonun hujjatlarini oldindan tahlil qilish va savollar tayyorlash imkonini beradi. Bu klinikaning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Klinika volontyori murojaatchi bilan suhbatlashish va maslahat berishga tayyorlanishi kerak. Xususan, suhbat davomida to'ldirilishi kerak bo'lgan quyidagi shakllarni tayyorlashi kerak:


- dastlabki so'rovnoma qog'oz;
- murojaatchi uchun yuridik klinika ish tartibi va tamoyillari to'g'risida ma'lumot;
- yuridik klinikaning ishlash vaqti to'g'risida ma'lumot va murojaatchi uchun eslatma.

Intervyu utkazish shunchaki shaxsdan voqea haqida bilgan hamma narsasini aytib berishini so'rashdan iborat emas. Murojaatchidan klinika volontyoriga qaratilgan axborot oqimiga uni buzadigan va cheklaydigan ko'plab omillar ta'sir qiladi. Murojaatchilarning o'z muammolarini bayon qilish, muhim faktlarni eslash va etkazish qobiliyatlari har xil. Ulardan ba'zilari haqiqatni, ba'zilari esa o'zlari xohlagan natijani gapirishadi. Klinika volontyori hamma narsadan norozi, asabiy va yuqori emotsional kayfiyatda murojaat etgan fuqarolar bilan intervyu o'tkazishiga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatlarda talabaning birlamchi vazifasi murojaatni tinglashdan oldin uni tinchlantirish, unga neytral holatdagi hamdardlik bildirish va bo'lajak suhbat jarayoniga zamin tayyorlash bo'lib hisoblanadi. Intervyuning asosiy qismiga o'tishdan oldin amalga oshiraldigan bunday harakatlar suhbat jarayonida olinadigan ma'lumotlarning aniq, to'g'ri va to'liq bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hattoki siz ishlatadigan aniq so'zlar, savol berish uslubi yoki savollaringizning tartibi ham murojaatchi voqeani eslashiga ta'sir qilishi mumkin.

**Intervyu jarayonining asosiy maqsadi** murojaatning mazmunini, klinikaga murojaat etgan shaxsning maqsadini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun bu jarayonda talaba murojaatchi yoki uning murojaati mazmuniga nisbatan qandaydir shaxsiy fikr bildirishi, amaldagi qonunchilik va tegishli hujjatlarni o'rganmasdan turib huquqiy maslahat berishga o'tib ketishi maqsadga muvofiq sanalmaydi. Garchi, klinikaga murojaat etayotgan fuqarolarning aksariyati darhol huquqiy yordam olishni ko'zlab kelgan bo'lsa ham.

Murojaatchi bilan uchrashuvga tayyorlanishda murojaatchilarning shartli tipologiyasi haqida bilim va tasavvurga ega bo'lish intervyu jarayonini samarali tashkil etish va o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotlarda murojaatchilarning quyidagi turlari keltiriladi:



- a) murojaatchi **“ishonuvchan bola”** bo'lsa, klinika volontyoriga oldindan ishonadi, u nima desa, shuni qilishga tayyor turadi va uning sevimli pozitsiyasi - “O'zingiz o'ylagan narsani qiling” bo'ladi;
- b) murojaatchi **“passiv shubhalanuvchi”** bo'lsa, klinika volontyorining barcha tushuntirishlari va takliflariga quyidagi jumla bilan javob beradi: “Ha, bularning barchasi foydasiz, men muvaffaqiyatga erisha olmayman”;
- v) murojaatchi klinika volontyorining har qanday tushuntirishlariga qaramay, o'z manfaatlarini talab qiladigan **“qaysar”** bo'lsa, keyin barcha yuridik tavsiyalar murojaatchining “qaysarligi” tufayli amalga oshmaydiganga o'xshaydi;
- d) murojaatchi **“yopiq eshik”** hisoblanganda, u haqiqiy holatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa ham uni klinika volontyori bilan baham ko'rishga shoshilmaydi, kichik qismlarga ajratib beradi va klinika volontyori murojaatchi, unga kerak bo'lgan hamma narsani aytganligiga, eng muhim narsani qoldirib ketmaganligiga to'liq ishonch hosil qilmaydi;
- e) murojaatchi - **“Yurist”**. Bu yuridik klinikaga murojaat qilishdan oldin deyarli barcha instansiyalarga murojaat etgan, ulardan tegishli maslahat va javoblarni olgan, o'zining masalasiga tegishli barcha zarur qonun normalaridan xabari bor shaxs. Yuridik klinikaga tashtif buyuruvchilar orasida bunday turdagi murojaatchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Klinika volontyori uchun bunday murojaatchilarni qabul qilish va ularga huquqiy maslahat berish juda qiyin. Sababi, klinika volontyorlari hali talaba bo'lganligi, murojaatning mazmunini chuqur tahlil etish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi uchun barcha instansiyalardan o'tib kelgan shaxsga u bilgandan ko'ra ortiqcha ma'lumotni bera olmaydilar. Qolaversa, bunday turdagi murojaatchilarning aksariyati o'zlarini asossiz haq deb hisoblab, ularga klinika volontyorlari tomonidan asoslantirilgan holda taqdim etilgan javoblarni tan olmaydilar, klinika talabalarini bilimsizlik va tajbasizlikda ayblashga o'tish hollari ham uchrab turadi.




Demak, murojaatchi bilan uchrashishga tayyorlanish bosqichida klinika volontyori murojaatchilarning yuqoridagi turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi va "murakkab shaxslar" murojaat etganda ular bilan qanday muomala qilish va animada javob berishga tayyorgarlik ko'rishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

### 2.3. Intevyuni bosqichma-bosqich o'tkazish

Intevyuni o'tkazishda yaxshiroq natijaga erishish uchun uni bosqichlarga bo'lish foydalidir. Suhbat jarayonida yetarli ma'lumot olishni ko'plab usullar bilan amalga oshirish mumkin, ammo tajriba shuni ko'rsatdiki, quyidagi beshta bosqich orqali intervyuda ko'proq natijaga erishish mumkin:

- o'zaro baholash;
- murojaatchining umumiy holatini aniqlash;
- boshlang'ich nuqtani aniqlash;
- vaziyatlarni o'zaro bog'liq ketma-ketlik asosida tahlil qilish;
- va xulosa.

Har bir bosqich o'z maqsadiga ega va turli xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Albatta, bu bosqichlar intervyu o'tkazishning yagona usuli emas va har qanday holatda ham ushbu usulga qat'iy amal qilish kerak, degan fikrdan yiroqmiz.



#### 1) Birinchi bosqich - o'zaro baholash

Intevyuning birinchi bosqichida klinika volontyori murojaatchi bilan uchrashadi, u bilan aloqani o'rnatish uchun ilk qadamlarni qo'yadi, maqsadlarini tushuntiradi va bir-birini tushunishni boshlaydi. Buni o'ziga xos "tanishuv va qoidalarni tushuntirish" bosqichi desha ham bo'ladi. Ushbu bosqich juda qisqa bo'lishi mumkin, ayniqsa oldin ushbu shaxs klinikaga murojat etgan bo'lsa. Ba'zi murojaatchilar haqiqiy holatlariga tezroq o'tishni yaxshiroq deb hisoblaganliklari sababli dastlabki bosqichni iloji boricha qisqartirishga harakat qilishadi. Lekin, murojaatchining shaxsi, maqsadiga tegishli ma'lumotlarni aniqlamaslik va unga yuridik klinikaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari haqida zarur qoidalarni tushuntirmaslik, keyinchalik taraflar o'rtasida nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun murojaatchi bilan suhbatlashish uchun sarflangan bir necha daqiqa o'zini qulay his qilishga va o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi va keyingi munosabatning sifatini yaxshilaydi.

Yuridik klinikaga murojaat etgan shaxs bilan dastlabki uchrashuvingiz suhbatning umumiy holatiga ta'sir qiladi. Demak, murojaatchini qanday holatda kutib olishingiz juda muhim. Murojaatchini kutib olganingizdan so'ng, bir-ikki daqiqa suhbatlashish murojaatchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu murojaatchiga suhbatning asosiy qoidalarini tushuntirish uchun eng yaxshi vaqt: so'rov qancha vaqt ketishi, barcha ma'lumotlarning maxfiyligi, suhbatning maqsadi, uning tuzilishi va qog'ozga yoki video yozib olinishi haqida ma'lumot beriladi. Sizning o'zaro majburiyatlaringiz aniq belgilanishi kerak (ayniqsa, murojaatchilar o'rtasida o'tkazilgan dastlabki so'rovda): klinika volontyorining maqomi, siz muammoni qay tarzda hal qilishingiz, suhbat o'tkazilayotgan shaxsdan qanday ma'lumotlar olinishi va bu ma'lumotlar asosida siz unga qanday yordam bera olishingiz shular jumlasidandir.

Ushbu dastlabki savollarni muhokama qilish keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarning oldini oladi. Murojaatchini baholash, uning nutq uslubi, so'z boyligi, talaffuzi va ruhiy holatiga ko'nikish uchun sizga bir necha daqiqa vaqt kerak bo'ladi. Bu sizga murojaatchidan ma'lumot olishdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam berishi mumkin. Shuni yodda tutingki, murojaatchi ham sizga baho beradi. Sizga ishonish mumkinmi, siz bilan ochiqchasiga gaplashsa bo'ladimi va hokazo. Murojaatchi klinika volontyoriga o'z dardini aytishdan oldin shu kabi masalalarni o'ylab ko'radi.

## **2) Ikkinchi bosqich – murojaatchining umumiy holatini aniqlash**

Suhbatning ikkinchi bosqichidan maqsad murojaatchini voqealarni aytib berishiga imkon berish va tafsilotlarni so'rab uning gapini ma'lum muddat to'xtatmaslikdir. Bu bosqichda klinika bolontyorining vazifasi gapirish emas, tinglashdir. Siz murojaatchini voqeani aytib berishga undashingiz, muloqotni osonlashtiringiz va u muhim deb bilgan narsalarga ta'sir qilmaslikka harakat qilishingiz lozim. Bu bosqichni qaydlar daftariga yozib olishingiz shart emas. Bu sizni murojaatchini tinglashdan chalg'itishi mumkin va murojaatchining qanday ma'lumotlarni aytish yoki aytmaslik haqidagi fikriga ta'sir qiladi. Bu bosqich voqealar rivojini xuddi rasm chizgan kabi tasvirlab beradi va keyingi muloqotlarda nimalarga e'tibor qaratish kerakligini oydinlashtiradi.

Bu bosqichda to'g'ridan-to'g'ri savollardan emas, balki umumiy fikrlardan foydalanish kerak: "Aslida muammo nima?", "Muammoning mohiyati haqida ayting, shunda biz uni batafsilroq muhokama qilamiz", "Sizga qanday yordam bera olamiz?", "O'zi nima bo'ldi?" E'tibor bering, so'nggi ikkita jumla yanada kengroq shakllangan va hech qanday "muammo" bilan bog'liq emas. Shu sababli, ular ilk suhbat jarayoni uchun mos tushadi.

Murojaatchi dastlabki holatlarni ayta boshlaganida unga o'zi xohlagandek gapirishga imkon berish lozim. Savollar bilan boshidanoq xalaqit berish, ayniqsa shubha yoki tanqidni bildiradigan savollar murojaatchining samimiyligini pasaytirishi, ularning ma'lumotlarni sir saqlashiga olib kelishi va suhbatning borishini o'zgartirishi mumkin.

Murojaatchiga erkin gapirishga ruxsat berish, uning o'zini qulay his qilishiga yordam beradi. Bu uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi, unda suhbatdoshga nisbatan ishonchni uyg'otadi. Suhbatning dastlabki bosqichlarida to'g'ridan-to'g'ri savollar sizga murojaatchi hissiy holatining turli jihatlarini tushunishiga xalaqit berishi mumkin. Bundan tashqari, murojaatchi o'z murojaati davomida siz so'ramoqchi bo'lgan savollarga javob berishi mumkin. Shunday qilib, murojaatchining fikriga xalaqit bermasangiz, kutgan ma'lumotingizni olishingiz mumkin.

Amaliyotda ayrim murojaatchilar, ayniqsa keksa yoshdagilar, "erkin so'zlash" imkoniyatini suiste'mol qilgan holda soatlab gapirib o'tirishlari ko'plab kuzatiladi. Bunday holda klinika volontyori qanday yo'l turishi kerak?

Intervyuning dastlabki bosqichida umumiy qoidalar tushuntirilayotgan vaqtda murojaatchiga klinkada o'rnatilgan qoidalardan kelib chiqqan holda besh, o'n yoki o'n besh minut erkin so'zlash uchun imkoniyat berilishini tushuntirib o'tish bu muammoning samarali echimlaridan biri hisoblanadi. Bu qoida

tanishtirilayotgan vaqtda albatta, uning sababi ham murojaatchiga tushuntirishi maqsadga muvofiq sanaladi. Shunda murojaatchi hikoyasini boshalamasdan oldin o'zini tayyorlab oladi.

Juda ko'p gapiradigan murojaatchilarning umuman teskarisi, ya'ni gapirishni istamaydigan yoki turli sabablarga ko'ra ma'lumot etkazishda qiynaladigan murojaatchilar ham uchraydi.

Bunday hollarda, masalan, murojaatchi gapirishni istamasa, unga darhol to'g'ridan-to'g'ri savollar berishdan oldin gapirmayotganligi, yoki gapira olmayotganligining sabablarini aniqlashga kirishish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda murojaatchini umumiy gaplar bilan rag'batlantirish, ruhiy emotsional holga tushgan bo'lsa tinchlantirishga harakat qilish yaxshi samara beradi. Masalan, "shoshilmang", "tushunaman, bu haqda gapirish oson emas", "keyin nima bo'ldi?" kabi jummalarni ishlatish sizga qo'l kelishi mumkin.

Siz ikki sababga ko'ra murojaatchiga o'z his-tuyg'ularini ifoda etishiga imkon berishingiz kerak. Birinchidan, bu unga shaxs sifatidagi va o'z hissiyotlarini ifoda etishga bo'lgan huquqiga hurmatni ko'rsatadi. Ikkinchidan, agar siz murojaatchining his-tuyg'ularini tushunsangiz, uning muammoli vaziyatdagi sub'ektiv obrazlarini haqiqatdan ajratib olish osonroq bo'ladi.

Hamma murojaatchilar ham vaziyatni bir xilda tasvirlab bera olmaydi. Ba'zilar haqiqiy ma'lumotlarni to'liq oshkor qilishni xohlashmaydi, yana ba'zilar esa uyatchan bo'ladi, kimlardir esa faqat umumiy vaziyatni ifoda qilib bera oladi. Muloqot jarayonida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun siz muloqot jarayonini to'g'ri boshqarishingiz kerak. Ushbu bosqichda suhbat mazmuniga ta'sir qilmasdan, murojaatchini asl holatlarni gapirishga undaydigan usullardan foydalanish kerak. Bunda quyidagi uch xil usul sizga qo'l kelishi mumkin:

**1. Sukunat.** Suhbat paytida sukut saqlash juda qiyin. Uni nutq bilan to'ldirishga tabiiy moyillik mavjud. Siz savollaringiz bilan pauzalarni darhol to'ldirmaslikka harakat qiling. Agar sukunatni bo'lmasangiz, murojaatchi yana davom etishi mumkin. Sukunatni no'rin bo'lmaslik kerak, chunki bu murojaatchini chalkashtirib yuborishi va u yana nimalar haqida gapirishni bilmay qolishi mumkin.

**2. Rag'batlantirish.** Unga murojaatchining suhbatni davom ettirishini xohlashingizni bildiruvchi so'zlar, imo-ishoralar va yarim og'zaki tovushlar kiradi. Sukutdan farqli o'laroq, ushbu holat murojaatchiga siz uni tinglayotganingizni tushuntiradi. Bosh irg'ash, yuz ifodalari va "aha", "ha", "men eshityapman" va "sizni tushunaman" kabi qisqa so'zlar shular jumlasiga kiradi.

**3. Neytral savollar.** Uchinchi usul neytral maslahatsiz ochiq savollar bilan murojaat qilish. Murojaatchidan nima bo'lganini aytib berishni so'rashga o'xshab, bu usul u voqeani to'xtab qolganidan keyin davom ettirishiga yordam beradi. Ushbu toifaga "menga ko'proq gapirib bering", "yana nimanidir eslay olasizmi?", "yana nima bo'ldi?" kabi savollar kiradi. Bunday savollar, agar ular muhokama qilingan mavzular haqida maslahat berishga doir bo'lmasa, neytral tekshiruv texnikasi sifatida samarali bo'lishi mumkin

### **3) Uchinchi bosqich – boshlang'ich nuqtani aniqlash**

Murojaatchi nima bo'lganligi haqida katta ma'lumotga egaligi ayon bo'lganidan so'ng, siz batafsilroq ma'lumot berishni xohlaysiz. Ketma-ketlikdagi chalkashliklarni minimallashtirish uchun ushbu model murojaatchining holatiga binoan voqealar zanjirini xronologik tartibda qayta ko'rib chiqishingizni talab qiladi. Buning uchun avval siz voqealar qaysi nuqtada boshlanganligini aniqlashingiz kerak. Ba'zi muloqotlarda murojaatchi tomonidan tasvirlangan voqealarning umumiy ko'rinishi orqali boshlang'ich nuqta o'z-o'zidan aniq bo'ladi.

Ba'zi hollarda, voqealar rivojining boshlang'ich nuqtasini aniqlash qiyinroq. Qiyinchilik ba'zi faktlarning ahamiyatsizligidan kelib chiqishi mumkin. Agar murojaatchi avvalgi voqealarni ahamiyatsiz deb hisoblasa bu vaziyatlarni suhbat vaqtida, voqealarning ketma-ketligini tuzishda eslamasligi mumkin.

**Masalan,** yo'l-transport hodisasi bo'chida murojaat etgan shaxs, birinchi muhim voqea sifatida tez yuradigan mashinani ko'rganligini aytishi mumkin. Agar siz bunga ishonsangiz murojaatchi bilishi mumkin bo'lgan ba'zi narsalardan bexabar qolib ketishingiz mumkin. U tormoz tovushini eshitgan bo'lishi, yo'l chetida odamni ko'rgan yoki mashina egasi voqeadan bir kun oldin uning tormozi nosozligini aytganini eshitgan bo'lishi mumkin.

Birinchi tegishli voqeani aniqlashning usuli - murojaatchi asosiy voqeadan oldin nimani aytib berganini eslab qolishdir. Murojaatchi sizga o'zi asosiy deb hisoblagan narsani aytib berganligi sababli, siz «undan bir kun avval nima bo'lganligini ayting» kabi neytral savollar bilan biron bir yangi ma'lumotni topa olmasligingiz mumkin. Ushbu bosqichda tor doiradagi maxsus savollar murojaatchiga o'z xotiralarini yanada aniqlashtirishga yordam beradi. Bunday savollarni berganingizda murojaatchi sizga oldinroq nima bo'lganligini aytib berishi mumkin.

**Biroq,** ishora beruvchi savollardan qochishga harakat qiling. Agar murojaatchidan: «Ilgari hech narsa bo'lmagan, shunday emasmi?» deb so'rasangiz, ehtimol siz murojaatchi ma'lumot berishini to'xtatib qo'yishingiz mumkin.

Murojaatchi ilgari hodisani sodir etgan shaxslarni hamda murojaatchilarni tanish-tanimasligidan, voqea sodir bo'lishidan oldin yon-atrofnii va undagi odamlarni e'tibor bilan kuzatgan-kuzatmaganligidan qat'iy nazar, siz uning e'tiborini konkret hodisalarga va shaxslarga qarata olish orqali bo'lgan voqea haqidagi zarur ma'lumotlarni olishingiz mumkin.

#### **4) To'rtinchi bosqich - voqealarning batafsil ketma-ketligini aniqlash**

Murojaatchidan batafsil ma'lumotlarni olganingizdan va boshlang'ich nuqtani o'rnatganingizdan so'ng, tafsilotlarni o'rganish vaqti keladi. Ko'pgina hollarda, voqealarning odatiy xronologik tartibda taqdim etilishi bilan maksimal darajada to'liq ma'lumotga erishiladi. Ushbu bosqichda ish yuritishning biron bir shaklidan foydalanish tavsiya etiladi, chunki siz boshqa murojaatchilarning ismlari va manzillari kabi ba'zi muhim ma'lumotlarni eslab qolishingiz qiyin bo'ladi. Mazkur bosqichda siz murojaatchining tafsilotlarni qoldirib ketishiga imkon qoldirmasdan, suhbat jarayoni va tafsilotlar darajasini nazorat qilishingiz kerak. Bu mavzuni nazorat ostida ushlab turish deyiladi.

Suhbatning ushbu qismida murojaatchining javobini faolroq kuzatib borishga imkon beradigan va yangi tafsilotlarni ochishga harakat qilayotganingizda yordam beradigan boshqa taktikalar ham mavjud.

*Jarayonni rivojlantirish.* Rivojlantirish "hikoya" ni davom ettirish yoki fikrni yakunlash demakdir. Bu vaziyatda "Xo'sh, keyin?", "Keyin nima bo'ldi?" kabi savollar qo'llaniladi. Ikkinchidan, rivojlanish voqeaning davomini emas, balki ko'rib chiqilayotgan mavzuning tafsilotlarini aniqlash doirasida bo'lishi mumkin. Masalan: "Bu haqda ko'proq ma'lumot bering", "Bu haqda yana nima deya olasiz?" yoki "Aytilganlarga biron bir narsa qo'shmoqchimisiz?" kabi savollar vaziyatni yanada aniqlashtiradi.

*Qisqa tushuntirishlar.* Birinchidan, savol beruvchi murojaatchidan voqealarning aniqroq ketma-ketligini so'rashi mumkin. Masalan: "Eshikni ochganingizdan so'ng nima bo'ldi?", "Chiroqlar o'chmasidan oldin siz qayerda edingiz?", "O'sha kuni kechqurun uyga qaytib kelganingizda nima bo'ldi?" Bundan tashqari, suhbatdoshdan ma'lum bir davr haqida emas, balki ma'lum bir jihat haqida batafsilroq ma'lumot berishini so'rash mumkin. "Bu qachon yuz berdi?", "Bu haqda qanday bildingiz?", "Bino qulab tushganini ko'rganingizda yoningizda kimlar bor edi?", "Nima uchun ular buni qilishdi deb o'ylaysiz?" kabi savollar bu yerda o'rinli.

*O'zgartirish.* Klinika volontyori yangi mavzuga murojaatchi tabiiy ravishda unga o'tishini kutmasdan, tashabbus ko'rsatishi mumkin. Yo'nalishni o'zgartirishning murojaatchiga ta'siri uni ilgari muhokama qilingan ma'lum bir

mavzu bilan bir qatorda yoki yangi mavzu intervyuning umumiy yo'nalishiga qanday mos kelishini ko'rsatish orqali yumshatilishi mumkin.

Masalan: «Siz va oilangizning qolgan qismi ushbu ofatdan qanday qutulganingiz haqida juda yaxshi so'zlab berdingiz. Bu ofatdan boshqa shaxslar, xususan qo'shnilaringiz qanday zarar ko'rganligi va ularning ham da'vosi bor-yuqligini bilmoqchi edim. Menga bu borada yordam bera olasizmi?»

Ushbu bosqichni amalga oshirishdagi yana bir usul murojaatchiga voqealar rivojiga asoslangan jadval chizishni taklif qilishdir. Bu birinchi navbatda ma'lumotlarni yanada aniqroq tushuntirish uchun foydalidir. U orqali murojaatchi aniqroq ma'lumot bera oladi. Shuningdek jadval murojaatchiga mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni shakllantirishga yordam beradi. Aks holda uning voqealarni to'laligicha tasvirlab berishi qiyin kechishi mumkin.

## **5) Beshinchi bosqich - xulosalash**

Beshinchi bosqich intervyuning yakunlovchi qismi sanaladi. Bu bosqich murojaatchilar siz bilan munosabatlarni saqlashida yoki sizga va yuridik klinikaga nisbatan fikri shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Psixoanalistlarning ta'kidlashicha, yomon xayrlashuv, agar siz juda keskin tarzda aloqani uzoqlashtirsangiz, murojaatchi bilan tuzgan munosabatingizni buzishi mumkin.

Bu bosqich murojaatchi taqdim etgan voqealar ketma-ketligi siz uchun tushunarli bo'lgan yoki yo'qligini tekshirishning so'nggi imkoniyati va kelgusi uchrashuvlaringizni rejalashtirish uchun qulay vaziyat hisoblanadi.

Murojaatchi bilan keyinchalik aloqa qilish zarur yoki yo'qligidan qat'iy nazar, siz suhbatni asosiy faktlarning qisqacha mazmuni bilan yakunlashingiz kerak. Ushbu ma'lumotlarning barchasini mantiqiy tartibda ko'rib chiqib, siz murojaatchiga hozirgina aytganlari haqida mulohaza yuritish imkoniyatini berishingiz mumkin. Murojaatchi barcha ma'lumotlar siz tomoningizdan to'ri tushunilganligini tasdiqlaydi va siz uning fikrini tinglaganingiz va tushunganingiz uchun xotirjam bo'ladi.

Bundan tashqari, kelgusi uchrashuvlar va tadbirlarni rejalashtirish muhimdir. Murojaatchiga: "Rahmat. Men siz bilan yana bog'lanaman" deb suhbatni tugatish juda noaniq xulosa hisoblanadi. Aksincha, siz vaziyat bo'yicha o'zingizning vazifalaringiz va rejalarigizni to'liq tushunganingizga amin bo'lishingiz kerak. Agar murojaatchi yana nimalarnidir bilishi mumkin bo'lsa siz u bilan keyingi uchrashuvni belgilang va suhbat o'tkazish haqida ogohlantiring hamda u sizning ko'rsatmalarigizni tushunganiga ishonch hosil qiling. Agar siz voqealar asosida da'vo ariza yozmoqchi bo'lsangiz murojaatchiga kerakli hujjatlarni olib kelishini, bu ish qachon va qayerda amalga oshirilishini tushuntiring.

### **2.4. Murojaatchining psixologik holati to'g'risida ma'lumot olish**

Yuqorida ta'kidlanganidek intervyu jarayonining asosiy maqsadi suhbat paytida murojaatchidan ish uchun muhim bo'lgan har qanday holatlar to'g'risida zarur ma'lumotlarni olish bo'lib hisoblanadi. Suhbatlashish jarayonida murojaatchining aqliy-ruhiy holati, ayrim voqealarga, odamlarga munosabati to'g'risida xulosaga kelinadi. Suhbat orqali har doim ham keng qamrovli ma'lumotlarni olish imkoni bo'lmasa-da, murojaatchi bilan yaqindan tanishish, unga nisbatan eng to'g'ri taktik xatti-harakatni aniqlashga yordam beradi. Ushbu suhbat davomida klinika volontyri murojaatchida ijobiy taassurot qoldirishi, o'zining ijobiy fazilatlarini, murojaatchi muammosini obyektiv tushunishga intilishini ko'rsatishi kerak. Bularning barchasini inobatga olgan holda, quyida muhokama qilinadigan suhbatlashish qoidalarining ahamiyati muhim sanaladi.

Eng avvalo intervyu jarayonida klinika volontyori murojaatchi bilan muloqotning ushbu bosqichi qanday maqsadlarni ko'zlaganligini yodda tutishi kerak. Bu maqsadlar murojaatchi bilan aloqaga kirishish, undan kerakli ma'lumotlarni olish, murojaatchining maqsadi nima ekanligini aniqlash, u bilan samarali munosabatlarni o'rnatish hisoblanadi. Albatta, bu maqsadlarga har doim ham to'liq erishib bo'lmaydi, chunki buning uchun nafaqat professional huquqshunoslik haqidagi, balki ko'pgina boshqa ko'nikmalarga ham ega bo'lish kerak. Har bir murojaatchining shaxsiyati o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli psixologiya asoslarini bilish va ularni murojaatchi bilan muloqotda qo'llash klinika volontyoriga o'z vazifalarini bajarishda yordam beradigan qobiliyatlardan biridir.

Shubhasiz, murojaatchi bilan suhbat davomida juda ko'p turli xil vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu vaziyatlar uchun psixologik yondashuv talab etiladi. Hozirgi vaqtda tezkor harakat qilish qobiliyati ham murojaatchi bilan ishlashda klinika volontyori uchun zarurdir. Shunga qaramay, odamlar bilan yanada samarali muloqot qilish uchun har doim psixologiya qoidalariga rioya qilsangiz, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolardan qochishingiz mumkin. Ushbu bo'limdada shunday qoidalarning ba'zilari haqida to'xtalmoqchimiz.

Avvalo, murojaatchi bilan mustahkam aloqa o'rnatish kabi maqsadga erishish uchun suhbat o'tkaziladigan joyni to'g'ri tanlash zarur. Bu klinika volontyori va murojaatchi o'rtasidagi aloqani maksimal darajada oshirishga xizmat qilishi kerak. Murojaatchi klinika volontyorining qarshisida o'tiradigan holatda, stullarni stolga qaratib joylashtirish odatiy holdir. Psixologlar murojaatchi dastlab qarama-qarshi o'tirish shaxsga klinika volontyori uning barcha muammolaridan juda yiroq, o'zining nima uchun kelganini va nimani xohlashini uzoq vaqt tushuntirib berishi kerak deb hisoblaydi, ya'ni bunday shaxslarning idoralarida o'zini tutishning ma'lum bir stereotipini keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi. Shuning uchun, murojaatchi yon tomonda o'tirgan va shu bilan birga suhbatdoshdan uzoq bo'lmagan pozitsiya muloqot maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, talabalar eshitish muammolari bo'lishi mumkin bo'lgan keksa odamlar ham ko'pincha yuridik klinikalariga murojaat qilishlarini yodda tutishi kerak va bu holatlarda suhbatni tashkil qilishning ikkinchi usuli ham foydalidir. Murojaatchi ofisga kirib, stullardan qaysi biriga o'tirishi mumkinligi haqida o'ylab bezovtalikni his qilmasligi uchun, uni eshik oldida kutib olish, stolga olib borib: "Iltimos, shu erda o'tiring", deb taklif qilish tavsiya etiladi.

Shundan so'ng, darhol murojaatchi sizga qanday muammo bilan murojaat qilganini aniqlashni boshlamasligingiz kerak, chunki odamlarning aksariyati notanish odam bilan birinchi marta muloqot qilishda qandaydir psixologik noqulayliklarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, murojaatchining muammosi o'ta shaxsiy xususiyatga ega bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak va unga bu haqda suhbat boshlash oson emas. Shuning uchun uchrashuvni umumiy iboralar bilan boshlash afzaldir va ular ob-havo haqida yoki murojaatchining sog'lig'i bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday kirish jumalari klinikaning asosiy qoidalarini tushuntirish, murojaatchi haqida kerakli ma'lumotlarni bilib olish va boshqalarda muhim rol o'ynaydi.

Aynan shu bosqichda siz murojaatchi bilan o'rtangizda o'zaro tushunish va ishonchni o'rnatishga erishishingiz mumkin. Buning uchun ba'zi qoidalarni bilishingiz kerak. Psixologlarning aytishicha, ishonch ongli va ongsiz sodir bo'ladi. Ongli ishonch odamni qanchalik yaxshi bilishingiz bilan bog'liq. Ongsiz ishonch bu odamning sizga qanchalik o'xshashligi, uning ichki dunyosi siznikiga qanchalik to'g'ri kelishi bilan bog'liq. Ishonch muloqotdagi eng asosiy narsa hisoblanadi. Shuning uchun, agar suhbat boshida sizning oldingizda keksa, ehtimol savodsiz odam o'tirganini ko'rsangiz va unga: "Bizning muloqotimiz samaradorligi sizning menga qay darajada ishona olishingizga bog'liq bo'ladi" deyish murojaatchini sizga ongsiz ravishda ishonishga majburlamaydi, aksincha ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, ushbu bosqichda boshqa odamni sizning yoningizda o'zini yetarlicha his qilishiga xizmat qiladigan til va muloqot uslubini tanlashga harakat qilish juda muhimdir. Bu o'z navbatida klinika volontyori o'z mahoratini doimiy ravishda oshirishi zarurligini anglatadi. So'zlarining ishonarli, tushunarli ekanligi, nutqning har xil shakllaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, nutqining ifodaliligi darajasini baholab, nafaqat gapirish, balki o'zini tashqaridan tinglay olish muhim.

Uyg'unlik - bu odam xulq-atvorining barcha tarkibiy qismlari birlashishi va bitta maqsadga intilishining tashqi ko'rinishi. Shuning uchun harakatlaringizning muvofiqlik darajasi juda yuqori bo'lishi kerak. Masalan, siz yelkangizni egib, erga qarab, sekin, past ovozda murojaatchiga: "Men sizga yordam berishga astoydil harakat qilaman, hamma narsani hal qilish mumkin",- desangiz sizning ovozingiz va holatingiz so'zlaringizga mos kelmaydi. Bunday holatda siz bir narsani aytasiz va umuman boshqacha narsani ko'rsatasiz. Shunday qilib, uyg'unlik qanchalik baland bo'lsa, ishonch shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu yerda og'zaki bo'lmagan muloqot elementlarining ahamiyati haqida eslatib o'tish lozim. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: harakatlar, mimika, imo-ishoralar, ovozning tembri, uning intonatsiyasi va balandligi h.k. Og'zaki va og'zaki bo'lmagan ma'lumotlarning umumiy muloqotdagi nisbati taxminan 1/6 va 5/6 ni tashkil qiladi, shuning uchun har doim xatti-harakatlaringizning so'zlaringizga qanday mos kelishini kuzatib boring va murojaatchi bilan bir xil yo'l tuting, chunki bu sizga hamma narsadan ko'ra aniqroq ma'lumot berishi mumkin.

Shunday qilib, aloqa sifati asosan "murojaatchiga moslashish" va uyg'unlikdan iborat bo'lgan ongsiz ishonch darajasi bilan belgilanadi.

Sizning keyingi vazifangiz murojaatchining o'z muammosi haqidagi qarashlarini anglashingizdir. Bu vaziyatda barcha uchun umumiy usuldan, ya'ni umumiy savollar berish usulidan foydalanish o'rinli. Masalan: "Iltimos, sizni qiynayotgan muammo haqida so'zlab bering." Ushbu turdagi savollar qat'iy qolip va yo'nalishlarni o'rnatmaydi. Ular qat'iy belgilangan javobga ega emas, ularga bitta so'z bilan "ha" yoki "yo'q" deb javob berishning iloji yo'q. Murojaatchi o'zi lozim deb topgan narsalar haqida o'zi xohlagan holatda va tartibda aytib berishi mumkin. Bu yerda murojaatchiga xalal bermaslik, u nimani gapirmoqchi bo'lsa barchasiga imkon berish kerak. Ba'zan sizga shunday tuyulishi mumkinki, murojaatchi sizning oldingizga siz ko'p marta duch kelgan odatdagi muammo bilan kelgan. Siz hamma narsani tushunganingizni va murojaatchi tarafidan qo'shimcha izoh talab etmasligingizni aytib, uni to'xtatishga moyil bo'lasiz. Ammo shuni yodda tutingki, har bir vaziyatda muammoning mumkin bo'lgan yechimini boshqa shunga o'xshash vaziyatlardan ajratib turadigan xususiyatlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun murakkab hodisalarni yuzaki taassurotlar asosida baholash vasvasasiga qarshi turing.

Klinika volontyorining xatti-harakati tashrif buyuruvchini vaziyatga baho berish uchun zarur deb hisoblagan hamma narsani to'liq, xolisona bayon qilishga undashi kerak. Boshni ozgina irg'ash, qiziqish bilan qarash, neytral iboralar murojaatchiga diqqat bilan tinglanayotganliklarini, fikrlari davom etayotganini, hikoyaning ba'zi tafsilotlariga etarlicha munosabatda bo'lishlarini bildiradi. Murojaatchini tinglay olmaslik psixologik aloqani o'rnatish uchun to'siqdir.

Ko'pincha yuridik klinikaga psixikasi ma'lum darajada shikastlangan odamlar ham murojaat qilishadi. Ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab qilinadi. Ularning ba'zilari hissiy qo'zg'alish holatida ochiq gapirishga intilishadi. Ularning ba'zi bayonotlari ortiqcha bo'lsada to'xtatmaslik va chalg'itmaslik, jahl qilmaslik kerak. Shuning uchun, bunday vaziyatlarda murojaatchini uning nutqiga aralashmasdan tinglash odatiy holdir. Sizdan qisqa og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan ishoralar bilan birga vaqti kelganda biroz "sukut saqlash" talab qilinadi.

Masalan:

- *Ha, ha davom eting.*
- *Rostdanmi!?*
- *Ha, barchasini tushunyapman... va shu kabilar.*

Bunday so'zlarga mos ravishda mimika imo ishoralar va gavdani murojaatchiga qarata burish orqali ham murojaatchini tinglayotganligi to'risida ma'lumot berib borilishi mumkin.

Reflektiv bo'lmagan eshish paytida siz murojaatchining so'zlarini ular juda ishonchli ko'rinmasa ham darhol rad etishga shoshilmasligingiz kerak. Muloqotning ushbu bosqichida qilish kerak bo'lgan narsa - bu suhbatdoshning nutq oqimini ushlab turish, uning to'liq gapirishini ta'minlashga harakat qilishdir. Faqat ushbu tinglash o'z afzalliklarini tugatgandan keyingina suhbatning faktlarni yig'ish va muammoni aniqlash kabi keyingi bosqichlariga o'tish kerak.

Ushbu bosqichda murojaatchining holatini tushunish texnikasiga o'tishingiz kerak. Psixologiyada ulardan biri aniq va batafsil savollar berish usuli hisoblanadi. Bu jarayon tushunmovchilikka nima sabab bo'lganini aniqlashni, tushuntirishlarni va qo'shimcha tafsilotlarni talab qiladi:

- *Kechirasiz, men unchalik tushunmadim...*
- *Aniqlashtiring Iltimos...*
- *Siz buni gapirganda nimani nazarda tutdingiz?... va h.k.*

Parafrazlash – murojaatchi nutqini tushunishning yana bir texnikasi. Masalan:

- *Boshqacha qilib aytganda, siz ...ni da'vo qilyapsiz...*
- *Agar men sizni to'g'ri tushungan bo'lsam, demak siz....*

Parafrazlashga - bu umumlashtirishga juda yaqin holat, ya'ni suhbat mavzusidagi asosiy narsani ajratib ko'rsatish orqali xulosalashning bir usuli. Ushbu texnikadan murojaatchi sizdan so'rayotgan muammoni aniqlash uchun foydalanilishi lozim.

Tinglash qobiliyatining eng yuqori namoyishi - bu empatik tinglash hisoblanadi. Bu o'ziga xos «tuyg'u», tashrif buyuruvchini aql bilan emas, balki qalb bilan tushunishdir. Bunday munosabat, ayniqsa, turli xil nevrozlardan aziyat chekadigan, stressni boshdan kechirgan, shuningdek, ayollar va bolalar bilan suhbat jarayonida qo'llanilishi lozim.

Agar murojaatchi ushbu bosqichda ilgari aytilganlarni qat'iy takrorlashni boshlasa hamda bu vaziyatda vaqtiniz chegaralangan bo'lsa, siz fe'l-atvoringizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni xushmuomalalik bilan to'xtatishingiz mumkin. Va agar murojaatchi bunga javob bermasa, unga yanada kuchliroq eslatib qo'yishingiz mumkin:

- *Kechirasiz, Abdurasul Hayitovich. Yana sizning gapingizni to'xtatishim kerak. Afsuski, vaqtim cheklangan. Iltimos, aniqroq ayting, siz yuqorida aytganlaringizga yana nimanidir qo'shmoqchisiz?*

Qabulga kelgan fuqaro qonun qoidalariga zid choralarni ko'rishni talab qilib, noto'g'ri pozitsiyani egallagan taqdirda, uning fikrlari noto'g'riligi haqida dalillar keltiriladi. Ushbu dalilning ravshanligi va ishonarli bo'lishi psixologik aloqani saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega. Yanada aniqroq bo'lish uchun uni shu kabi muammolarni hal qilish amaliyotidan misollar bilan ko'rsatish kerak.

Argumentatsiya jarayonida murojaatchining bilim darajasidan tashqari iboralar qo'llanilishi mumkin emas. Murojaatchining qadr-qimmatiga putur yetkazadigan darajadagi qarorlarni chiqarmang, e'tirozga toqat qilmaydigan ohangda dialog o'tkazmang.

Masalan, siz bunday iboralarni ishlatmasligingiz kerak:

- *Siz noto'g'ri gapirayotganligingizni isbotlayman...*
- *Siz oddiy haqiqatni tushunmayapsiz...*
- *Axir, bu hammaga ayon... va h.k.*

Bunday iboralardan keyingi holatni osongina taxmin qilish mumkin. Uni kuchli g'ururga ega bo'lgan odam o'ziga nisbatan beparvo munosabatning namoyishi sifatida qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday nutq burilishlari hech qanday tortishuvlarni o'z ichiga olmaydi, ammo ulardan foydalanish natijasida urg'u



mazmunni dialogdagi ba'zi masalalarni muhokama qilishdan tashrif buyuruvchining shaxsiy fazilatlarini baholashga o'tadi, natijada dushmanlik va o'ziga xos psixologik qarama-qarshilik paydo bo'ladi.

Suhbatni yakunlash bosqichining ahamiyatini inobatga olish kerak, chunki u murojaatchining ongida uni kim qabul qilganligi haqidagi fikrini kuchaytiradi. Bundan tashqari, ushbu murojaatchi bilan aloqa davom ettirilsa, ilk muloqotdan chiqish holati keyingi aloqa jarayonlariga sezilarli ta'sir qiladi.

Yuqorida muhokama qilinganlar singari, bu holat ham nutqiy xulq-atvorning stilistik jihatdan neytral, xayrlashuvning eng oddiy formulalaridan tortib, har xil istaklarni ifodalovchi biroz murakkab ayrim shakllarigacha rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ko'pincha xayrlashishdan oldin ma'lum bir tayyorgarlik, biron bir o'tish bosqichi bo'lishi mumkin, bu davrda siz murojaatchini suhbatni tugatish zarurligiga undashingiz kerak, masalan:

- *Yaxshi, aftidan bugun biz deyarli barcha savollarga oydinlik kiritdik... va h.k.*

Murojaatchi bilan keyingi uchrashuvlar belgilanishi mumkin bo'lgan hollarda xayrlashish bosqichi kelajakdagi muloqotning tayyorgarlik qismi bo'lib xizmat qiladi:

- *O'ylaymanki, bu suhbat siz va biz o'rtamizdagi oxirgisi bo'lmaydi...*
- *Keyingi hafta men sizga qo'ng'iroq qilaman va biz yana uchrashishimiz lozim...*
- *Dushanba kuni soat 10 da men sizni albatta kutaman... va h.k.*

Albatta, ko'rib chiqilgan psixologik xususiyatlar murojaatchi bilan suhbatlashishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlarni qamrab olmaydi. Ammo hech bo'lmaganda ushbu asosiy qoidalarga rioya qilish sizga muloqotdan ko'zlangan maqsadlarga erishishni va ishingizni ancha samarali tashkil etishni osonlashtiradi.

## **2.5. Murojaatchini yuridik klinikaga qabul qilishning dastlabki qoidalari**

Yuridik klinikada murojaatchilarni qabul qilishning asosiy qismi intervyu jarayonidan boshlanadi. Intervyu yuridik klinikada fuqarolarga bepul huquqiy yordam ko'rsatish jarayonidagi muhim bosqich bo'lib, uning maqsadi murojaatchining klinikaga tashrif buyurishdan maqsadi, muammosi va klinikadan qanday yordam kutayotganligini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Ko'pincha fuqaro o'z muammosida muhim bo'lgan yuridik faktlarni ajratib ololmaydi. U xafagarchilikka, his-tuyg'ularga, adolatga erishish istagiga to'lib toshgan bo'ladi. Bunday holda klinika volontyori va murojaatchi o'rtasida shakllangan ishonch juda muhimdir. Bunday ishonoch bo'lmasa huquqiy yordam izlayotgan fuqarolar ba'zi ma'lumotlarni sir saqlashlari mumkin. Natijada bu klinika volontyori tomonidan noto'g'ri maslahat berish ehtimolini oshiradi. Murojaatchining ishonchiga ilk uchrashuvdagi yaxshi muomala va uning holatiga bo'lgan qiziquvchanlik bilan erishiladi. Murojaatchi uni tinglayotganingizni, uning talablarini tushunganingizni his qilishi kerak. Boshqa ishlar bilan banddek ko'rinish murojaatchini bezovta qiluvchi muhit yaratadi.

Dastlab, murojaatchining hissiy holatini tushunish va murojaatchini muammoning mazmuniga ta'sir qilmasdan gapirishga majbur qiladigan neytral yoki passiv usullardan foydalanish muhimdir. Majburiy bo'lmagan rag'batlantirish va «menga ko'proq gapirib bering», «yana bir narsani eslay olasizmi» kabi neytral savollar (maslahatsiz ochiq savollar) afzallik beriladi. Majburiy bo'lmagan rag'batlantirish imo-ishoralar va yarim og'zaki tovushlardan iborat bo'lib, klinika volontyori murojaatchining gapirishni davom ettirishini istayotganligini ko'rsatadi. Masalan, bosh iring'ash, yuz ifodalari, «tushunarli», «mana shunday» va boshqalar majburiy bo'lmagan rag'batlantirishga misol bo'la oladi.

Murojaatchini tinglagandan so'ng, klinika volontyori ishning holatlarini aniqlashi, natijani oldindan taxmin qilmasligi va yechim talab qilayotgan mavzuni shakllantirishi kerak.

Klinika volontyori e'tiborini murojaatchining hikoyasidagi yuridik faktlarga qaratishi kerak. Agar ishga doir hujjatlar bo'lsa, unda ularga e'tibor berishi, murojaatchi tomonidan aytilayotgan ma'lumotlarning u tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga qay darajada mosligini tekshirishi lozim. Klinika volontyori maslahat berishga tayyorlanish uchun zarur hollarda ish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning nusxalarini olishi mumkin.

Bunda zinhor murojaatchi hujjatlarining asl nusxalarini olib qolishga ruxsat berilmaydi.

Intervyu jarayonida ishning barcha holatlariga oydinlik kiritish maqsadida, mojaroning yechimini qidirib, murojaatchi nimani kutayotganini bilib olish muhim. Chunki bu ma'lumot maslahat berish jarayoni uchun kerak bo'ladi.

Murojaatchi bilan yanada ko'proq muloqot qilish zaruratidan qat'iy nazar, klinika volontyori suhbatni asosiy faktlarning qisqacha mazmuni bilan yakunlashi kerak. Agar murojaatchining da'vosi talabini aniqlash uchun vaqt talab qilinadigan bo'lsa, buni murojaatchiga tushuntirish va maslahat berishni boshqa kunga qoldirish kerak.

Ayrim hollarda klinika volontyori intervyu jarayonini oldindan yakunlab, murojaatchini masalani o'rganishni rad etishi mumkin. Bunga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

- klinika volontyori bilan murojaatchi o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud bo'lsa; (Masalan, aynan bir masala bo'yicha oldin klinika volontyori tomonidan boshqa tarafga huquqoy maslahat berilgan bo'lsa. Bunday holda klinika volontyori klinika rahbariga murojaat etadi va fuqaroni qabul qilish boshqa volontyorga beriladi).

Masalan, uy-joy masalasida qaynona klinikaga murojaat etib huquqiy maslahat olib ketadi. 2-3 kundan keyin uning kelini xuddi shu masala bo'yicha klinikaga murojaat etadi. Bunda qaynonani qabul qilgan klinika volontyori kelinni qabul qilishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkinligini inobatga olib, kelinni boshqa volontyor qabul qilishi tavsiya etiladi.

- murojaatchining talablari va yoki e'tirozlari noqonuniyligi va asossizligi aniq bo'lsa. Bunday holda klinika volontyori vaziyatni murojaatchiga tushuntirishga harakat qiladi. Bu hol ijobiy samara bermagan holda klinika rahbariga murojaat qiladi;
- amaldagi qonunchilikda fuqarolarning murojaatlarini rad etish uchun belgilangan asoslar mavjud bo'lgan hollarda.

Masalan, **“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”**gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 29-moddasiga ko'ra quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

- anonim murojaatlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;
- mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

Murojaatlar ko'rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, u davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar ko'rmay qoldirilganligi to'g'risida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi.

1. Ish joyingizni murojaatchini qabul qilishga tayyorlang. Begona narsalar, stullar, qalam va qog'ozlardan xoli stol tayyorlang.

2. Murojaatchini tik turgan holda kutib oling. Salomlashing va suhbatni boshlang. O'zingizni tanishtiring va siz ishlaydiga tashkilotni tanishtiring:

«Hayrli kun! Mening ismim \_\_\_\_\_»

Men yuridik klinika talabasiman \_\_\_\_\_»

Murojaatchining ismini so'rang. Murojaatchini o'tiradigan joyga olib boring, u bilan birinchi aloqani o'rnatish uchun bir nechta norasmiy gaplarni ayting, masalan: «Bizni osongina topdingizmi?» Murojaatchini o'tirishga taklif qiling.

3. Murojaatchining ishi yuridik maslahatchining rahbarligi va nazorati ostida klinikaning talabasi tomonidan ko'rib chiqilishi, natijada chiqariladigan xulosa faqat maslahat xarakteriga ega ekanligi to'g'risida ogohlantiring.

4. Murojaatchiga Yuridik klinikada tijorat faoliyati va jinoiy ishlar bo'yicha maslahatlar berilmasligi, qolgan masalalar bo'yicha qachon maslahat berilishi murojaatchi bilan birinchi suhbat tugagandan keyin ma'lum bo'lishi to'g'risida xabar bering.

5. Murojaatchining muammosi tijorat yoki jinoyat bilan bog'liqligini aniqlang. Agar uchrashuvning ushbu bosqichida klinika murojaatchiga yordam bera olmasligi aniq bo'lsa, bu haqida murojaatchiga xushmuomalalik bilan, ammo qat'iy ravishda xabar bering va unga eng yaqin yuridik konsultatsiya yoki vakolatli organga (ichki ishlar, notarius va boshqalar) murojaat qilishni tavsiya eting (vakolatli organlar ro'yxati, manzillar va telefonlarini taqdim etish maqsadga muvofiq).

6. Klinikaga tashrif buyuruvchiga murojaati mazmunini tushuntirish uchun qisqa (5-10 daqiqa) erkin so'zkash imkonini bering. Uning hikoyasiga qiziqish bildiring, u so'zlayotganda muhim jihatlarni qisqacha yozib boring.

7. Murojaatchi qonuniy manfaat sifatida nimani ko'rishini, huquqiy muammoni hal qilish natijasida nimaga erishishni istayotganini bilib oling.

8. Agar murojaatchi o'z hikoyasida muammodan uzoqlashsa, uni diplomatik usulda suhbatning asosiy oqimiga qaytaring. Sabr-toqatli va muloyim bo'ling.

9. Murojaatchi hikoyasini tugatgandan so'ng, unga aniq savollar bering, huquqiy muammoni aniqlash uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha holatlarni aniqlang.

10. Murojaatchiga huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni qisqacha aytib bering va barchasini to'g'ri tushunganingizni so'rang. Murojaatchi bilan tushunarli tilda gaplashing, rasmiy so'zlardan va shevalardan qoching.

11. Ish yuridik klinikada ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi mumkin bo'lsa, navbatchi rahbarga xabar bering. Agar ish qabul qilinsa, bu haqda murojaatchiga xabar bering, ish kartasini to'ldiring («Murojaatchilar to'g'risidagi ma'lumotlar» ustunlari), agar qo'shimcha ma'lumotlarga aniqlik kiritish zarur bo'lsa, ularni telefon orqali so'rash uchun murojaatchining roziligini oling. Uning ishini klinikada ko'rib chiqish uchun murojaatchining yozma roziligini oling.

12. Murojaatchi o'zi bilan olib kelgan hujjatlar nusxalarini oling. Murojaatchining asl hujjatlarini saqlamang! Iloji bo'lsa, murojaatchiga qanday hujjatlar olib kelishi va qanday harakatlarni amalga oshirishi kerakligi to'g'risida tushuntiring. Agar kerak bo'lsa, murojaatchiga kerakli hujjatlarni olib kelish uchun vaqt belgilang.

Murojaatchi bilan uchrashuv kunini rejalashtirayotganda, shu kuni haqiqatan ham vaqtingiz va imkoniyatlaringizni yetishini hisobga oling. Murojaatchiga maslahat berish bir haftadan kechiktirmasdan o'tkazilishi kerak. Bir hafta oldin siz yozma javobni tayyorlashingiz kerak, uni murojaatchi bilan uchrashuvdan 3 kundan kechiktirmay o'qituvchi tasdiqlashi kerak. Agar o'qituvchi sizga xatolarni ko'rsatib bersa, siz ularni tuzatishga vaqt topishingiz va o'qituvchi bilan yana bir uchrashuv qilishingiz kerak. Uchrashuvni qayta rejalashtirishdan ko'ra, uchrashuvga bir necha kun qolganda tayyor bo'lish yaxshiroq!

13. Murojaatchiga uning huquqiy muammosi echimi bo'yicha hech qanday va'da bermang. U bilan samimiy xayrlashing.

14. Murojaatchi bilan xayrlashayotganda o'ringizdan turing va uni eshikka kuzatib qo'ying.

15. Ushbu ish uchun talabalarning qaysi biri javobgar etib tayinlanishini klinika rahbari bilan kelishib oling (agar ish murakkab bo'lsa yoki ko'plab materiallarni o'rganish kerak bo'lsa, bir nechta mas'ul talabalar tayinlanishi mumkin) va ma'lumotlarni "Ma'lumotlar kartasi"da ko'rsating («Talabalar to'g'risida ma'lumotlar» ustunlari). Ish uchun javobgar talaba rahbar bilan ushbu ish uchun berilgan raqamni bilishi va uni ish kartasida ko'rsatishi shart.

Kelajakda ish yuritish bo'yicha asosiy vazifalar mas'ul talaba tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu boshqa talabalarning ishda ishtirok etish imkoniyatini istisno etmaydi.

Quyidagi eslatma klinikaning yuridik talabalari uchun foydali bo'ladi:

## ESLATMA

### murojaatchilarning dastlabki so'rovnomasini o'tkazish tartibi to'g'risida

1. O'zini tanishtirish va murojaatchining ism-familiyasini bilib olish.
2. Murojaatchini yuridik klinikada yuridik yordam ko'rsatish shartlari va tartibi bilan tanishtirish:
  - a. Yuridik klinika faoliyatining maqsadi va vazifalari.
  - b. Yuridik klinikada kimlarga xizmat ko'rsatilishi.
  - c. Huquqiy maslahatlarning to'g'riligi va ijrosi qanday ta'minlanishi.
  - d. Yuridik klinika xizmatidan kimlar foydalana olmasligi.
  - e. Yuridik klinikadagi xizmatlarning bepulligi.
  - f. Murojaatchi o'zini ushbu toifadagi fuqarolar qatorida deb hisoblashi.
  - g. Murojaatchini talabalarning imtixon va ta'til kunlari ish jarayoni to'xtashi mumkinligidan ogohlantirish.
  - h. O'quv jarayonida anonimlikka rioya qilgan holda materiallardan foydalanish mumkinligi.
  - i. Klinikaga tashrifdan so'ng yuristkonsult bilan uchrashish imkoniyati.
3. Murojaatchi «Murojaatchining yuridik klinika talabarlari tomonidan o'z ishini kurator nazorati ostida olib borishiga roziligi» shaklini o'qib, imzolasin.
  - a. Nima uchun shaklni to'ldirish va imzolash kerakligini tushuntiring
  - b. Murojaatchini shakl mazmuni bilan tanishtiring
  - c. Shaklning mazmuni bo'yicha uning hech qanday savollari yo'qligiga ishonch hosil qiling
  - d. Murojaatchidan shaklni to'ldirishini va imzolashini so'rang
4. So'rovnomaning quyidagi satrlarini to'ldiring:
  - a. Murojaatni qabul qiluvchi F.I.SH
  - b. Murojaatchi F.I.SH
  - c. Qabul sanasi
  - d. Murojaatchining manzili, telefon raqami (agar murojaatchi ishlasa, bog'lanish uchun xizmat raqami)
  - e. Ijtimoiy holati
  - f. Siz yuridik klinikaga kelishdan oldin qayerga borgansiz \_\_\_\_\_ (ushbu huquqiy masala bo'yicha)
  - g. Siz ilgari yuridik klinikaga murojaat qilganmisiz \_\_\_\_\_  
Suhbat o'tkazish
5. Murojaatchining roziligi bilan u tomonidan olib kelingan tegishli hujjatlarning nusxalarini oling. Hujjatlarning asl nusxasini murojaatchiga qaytaring.
6. Keyingi maslahat kunini belgilang.
7. Uni murojaatchiga ko'rsating va keyingi uchrashuv kunini tasdiqlang.
8. Murojaatchining dastlabki qabulidan so'ng (agar murojaatchi uchun biron bir hujjat tayyorlashga hojat bo'lmasa), uning murojaatini og'zaki maslahatlashuv jurnaliga yozib qo'ying.
10. Uchrashuv sanasini, murojaatchining familiyasini va maslahatchining familiyasini murojaatchilarni qabul qilish jadvaliga kiriting.

So'rovnomaning quyidagi satrlarini to'ldiring:

- a. Ishning raqami (bu og'zaki maslahat jurnalidagi ro'yxatga olish raqamiga to'g'ri keladi)

- b. Qarama-qarshi tomon
- c. Ish turi
- d. Muammoning qisqacha tavsifi
- e. Qabul qilingan choralar

12. Uchrashuvni va uning natijasini o'z hisobotingizda yozib qo'ying.

## 2.6. Murojaatchini qabul qilishda noverbal muloqotning ahamiyati

Har bir huquqshunos ega bo'lishi kerak bo'lgan amaliy ko'nikmalardan biri bu "satrlar orasida o'qish" qobiliyatidir. Murojaatchi bilan muloqot qilishda, unga maslahat berishda, ma'lumotlarni uzatishning og'zaki bo'lmagan usullariga katta e'tibor berish kerak. Murojaatchining ham, yuristning ham o'zlarini tutishlari, imo-ishoralari, yuz ifodalari, ovoz past balandligi kabi omillar samarali muloqot uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologlar suhbatdagi og'zaki, ya'ni so'zlar bilan beriladigan ma'lumotlar muloqot davomida almashiladigan ma'lumotlarning 35 foizdan kamrog'ini egallashini va 65 foizdan ko'prog'i og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari yordamida uzatilishini aniqlaganlar. Imo-ishoralari, yuzdagi signallar - bu murojaatchiga sizni va sizning ma'lumotlaringizni yetarli darajada idrok etishga yordam beradi. Murojaatchida yaxshi taassurot qoldirish uchun yurist muloqotning asosiy qoidasini, ya'ni samimiy bo'lishni unutmasligi kerak.

Yurist va murojaatchi o'rtasidagi uchrashuvning dastlabki daqiqalaridanoq ular o'rtasida emotsiya paydo bo'ladi. Shuning uchun darhol ijobiy taassurot qoldirish kerak. Sizning tashqi ko'rinishingiz, xulq-atvoringiz sizning faoliyat sohangiz, umuman kasbingiz jamiyatda qabul qilingan g'oyalarga mos kelishi kerak.

Murojaatchi bilan muloqot qilishning muvaffaqiyati, asosan, bir tomondan, sizning xatti-harakatlaringizga, boshqa tomondan, murojaatchining tana tilini talqin qilish qobiliyatiga bog'liq.

Og'zaki bo'lmagan muloqotning ba'zi elementlarini ko'rib chiqamiz:

1. Qadim zamonlardan beri ochiq kaft samimiylik, halollik va ishonuvchanlik bilan assotsatsiya qilinadi. Agar murojaatchi sizning oldingizda kaftini to'liq yoki qisman ochsa, u hozir haqiqatni aytayotganiga amin bo'lishingiz mumkin. Sizning ochiq kaftlaringiz ham murojaatchini siz bilan samimiy bo'lishining ahamiyatini oshiradi.
2. "Qo'l barmoqlarini qisish". Insonning bu ishorasi umidsizlik va o'zlarining salbiy his-tuyg'ularini yashirish istagini anglatadi. Murojaatchining qisilgan barmoqlari yuz darajasida ko'tarilishi mumkin, qo'llar stolda yoki tizzada ham bo'lishi mumkin. Ushbu holatga e'tibor qaratish lozim. Murojaatchi unga gapirgan gaplaringizni, keltirgan ma'lumotlaringizni to'g'ri tushunganligini, hamma narsa unga mos keladimi va hokazolarni aniqlash orqali bunday holatning sababini bilish mumkin.
3. "Barmoqlarning og'izda joylashishi". Ushbu imo-ishora kuchli zulm holatini tavsiflaydi, tasdiqlash va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ichki ehtiyoj haqida gapiradi. Sizdan ma'lumot olgach, murojaatchi shubhalanishi, o'zi ma'qul deb hisoblagan harakatni va h.k.ni boshlashi mumkin. Bunday imo-ishorani payqab, murojaatchini qo'llab-quvvatlash kerak, ehtimol yana bir bor u bilan batafsilroq suhbatlashish kerakdir.
4. "Iyakni silash". Ushbu imo-ishora odamning qaror qabul qilishga urinayotganligini anglatadi.
5. "Qo'llarning ko'krak qafasida zanjir qilib turish" Bir yoki ikkala qo'lini ko'kragiga qo'yib, odam to'siq hosil qiladi. Bu o'zini yaqinlashib kelayotgan tahdid yoki istalmagan holatlardan ajratishga urinishning bir turi. Agar maslahat paytida siz murojaatchi qo'llarini ko'kragiga kesib o'tganini ko'rsangiz, u siz aytgan narsaga rozi emasligini anglatishi mumkin. So'zlarda u rozi bo'lganligini ifodalayotgan bo'lsa ham. Shu payt siz uning imo-ishora sababini aniqlashga harakat qilishingiz va murojaatchining bunday pozitsiyasi sababini aniqlashingiz maqsadga muvofiq sanaladi. Agar uning sababi sizning maslatingiz yoki bergan ma'lumotingiz bo'lsa, bu ma'lumotni batafsilroq tushuntirish vaziyatning echimi bo'lishi mumkin.

6. Bosh imo-ishoralari. Boshning uch asosiy holati mavjud. Birinchisi - to'g'ri bosh. Bu eshitgan narsalariga betaraf bo'lgan odamga xosdir. Bosh yon tomonga o'girilganda, bu murojaatchining qiziqishi uyg'onganligini ko'rsatadi. Agar shunday bo'lsa, unda siz muloqotni to'g'ri o'tkazayotgan bo'lasiz. Agar bosh pastga egilgan bo'lsa, bu murojaatchining munosabati salbiy va hatto tanqid qilayotganligidan dalolat beradi.
7. Ko'z signallari. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarning 87 foizi vizual retseptorlari orqali inson miyasiga etib boradi. Murojaatchining diqqatini maksimal darajada boshqarish uchun, qalam yoki boshqa yoziv quroli yordamida oldindan tayyorlangan chizma orqali tushuntirish va beriladigan ma'lumotni o'sha chizma orqali tavsiflash. Keyin qalamni ko'taring va uni sizning va murojaatchining ko'zlari darajasida ushlab turing. Uning boshi magnit kabi ko'tariladi, u sizning ko'zingizga qaraydi va iloji boricha ma'lumotni o'zlashtiradi.

Og'zaki bo'lmagan muloqot usullarini talqin qilishda imo-ishoralar, signallarning butun majmuasini, ularning og'zaki bayonotlarga muvofiqligini hisobga olish kerak bo'ladi.





### **3-BOB. YURIDIK KLINIKADA MUROJAATCHIGA BEPUL HUQUQIY MASLAHAT BERISH**



# 3-BOB. YURIDIK KLINIKADA MUROJAATCHIGA BEPUL HUQUQIY MASLAHAT BERISH

## 3.1. Huquqiy maslahat berish tushunchasi va turlari

Yuridik klinika talabalari faoliyatining intervyudan keyingi muhim bosqichi murojaatchiga maslahat berish bo'lib hisoblanadi. Klinika volontyori murojaatchi tomonidan barcha huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar haqida ma'lumotlarni olgandan keyin murojatchining maqsadidan kelib chiqqan holda ularni tahlil qilishga kirishadi. Eng avvalo murojaatchi intervyu jarayonida bergan ma'lumotlarning u taqdim etgan hujjatlarga mosligi, hujjatlarga ko'ra murojaatchining talabi qanchalik qonuniyligi, amaldagi qonun hujjatlarida bu borada qanday asoslar va tartiblar nazarda tutilganligini aniqlaydi.

*Yuridik klinika talabalari faoliyatining intervyudan keyingi muhim bosqichi murojaatchiga maslahat berish bo'lib hisoblanadi. Klinika volontyori murojaatchi tomonidan barcha huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar haqida ma'lumotlarni olgandan keyin murojatchining maqsadidan kelib chiqqan holda ularni tahlil qilishga kirishadi. Eng avvalo murojaatchi intervyu jarayonida bergan ma'lumotlarning u taqdim etgan hujjatlarga mosligi, hujjatlarga ko'ra murojaatchining talabi qanchalik qonuniyligi, amaldagi qonun hujjatlarida bu borada qanday asoslar va tartiblar nazarda tutilganligini aniqlaydi.*

O'quv jarayonida «Yurisprudensiya» sohasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun talabalarning bepul huquqiy maslahat berish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Yuridik klinikalar buning uchun eng yaxshi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Bu erda talabalar turli xil huquqiy muammolar va hayotiy vaziyatlarga duch kelgan holda o'zlarining huquqiy maslahat berish ko'nikmalarini shakllantiradilar va rivojlantiradilar. Murojaatchilar tomonidan berilgan tegishli huquqiy savollarni tahlil qilish, yuridik klinika rahbari, o'qituvchilar va taklif qilingan advokatlar rahbarligida og'zaki va yozma javoblarni tayyorlash orqali talabalar huquqshunosning amaliy ishiga imkon qadar yaqin sharoitlarda maslahat berish bo'yicha o'qitiladi.

Huquqiy maslahat berish faoliyati quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- intervyu jarayonida olingan muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni tahlil etish, ularning murojaatchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga mosligini tekshirish;
- murojaatchining talabi amaldagi qonun hujjatlariga mosligini tekshirish, talab qonun hujjatlariga mos bo'lmagan taqdirda bu haqida murojaatchiga xabar berish;
- me'yoriy materiallar doirasida harakat qilish va maslahat berish, muammoni hal qilish uchun qonuniy asoslar doirasida harakat qilish;
- murojaatchining maqsadiga erishish uchun muqobil variantlarni aniqlash;
- murojaatchiga uning muammosining huquqiy tomoni va mumkin bo'lgan yechimlarini aniq va oson tushuntirish;
- murojaatchi harakatlarining oqibatlarini, shu jumladan nafaqat qonuniy, balki ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida ma'lumot berish;
- murojaatchiga uni qiziqtirgan masala bo'yicha har tomonlama huquqiy ma'lumotlarni taqdim etish;
- murojaatchiga uning muammosini hal qilishning barcha mumkin bo'lgan yechimlarini aniqlash va tushuntirish;
- har bir qarorning ehtimoliy oqibatlarini ko'rsatish;
- murojaatchiga eng maqbul yechimni tanlashda yordam berish;

Yuridik klinikada sifatli huquqiy maslahat berish uchun huquqiy maslahatlarning asosiy turlari haqida ma'lumotga ega bulish foydadan xoli bo'lmaydi. Yuridik maslahatlarning quyidagi mezonlarga ko'ra turlarga ajratish mumkin:

### **I. Murojaatchi bilan maslahatlashish uchun uchrashuvlar soni va ish yuritishning mumkin bo'lgan istiqbollari ko'ra:**

- *Bir martalik huquqiy maslahat berish.* Klinika volontyori bilan bir yoki ikki marta uchrashuv orqali murojaatchining muammosi hal qilingan hollar bir martalik maslahat berishga kiradi. Bunday holda birinchi uchrashuv, qoida tariqasida, suhbat o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, yuridik maslahat ikkinchi uchrashuv paytida beriladi;
- *Takroriy yoki qo'shimcha maslahat berish.* Agar dastlabki maslahat berish vaqtida murojaatchi o'zi uchun kerak bo'lgan barcha savollarga javob topmagan bo'lsa yoki maslahat tarkibiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha holatlar yuzaga kelgan bo'lsa, takroriy yoki qo'shimcha maslahatga ehtiyoj tug'ladi;
- *Bir nechta marta maslahat berish.* Murojaatchilar o'z ishlarini sudda mustaqil ravishda olib borganlarida va bitta huquqiy muammo doirasida ba'zi huquqiy savollar tug'ilganda murojaatchilar bir necha bor yuridik klinikaga murojaat qilishlari lozim bo'lgan hollarda bir necha bor maslahat berishga to'ri keladi. Ushbu turdagi maslahat berish doirasida maslahat dastlab murojaatchi bilan suhbatlashgan va u bilan maslahatlashgan huquqshunos talaba tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir, chunki u tegishli hodisaning holatlarini to'liq va batafsil biladi. Shuni ham nazarda tutish lozimki, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasiga asosan agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo'lsa, ilgari murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to'la-to'kis materiallari mavjud bo'lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo'lsa murojaatni ko'rib chiqish tugatiladi.

### **II. Klinika volontyori uchun murojaatchi muammosining murakkablik darajasiga qarab:**

- *Suhbatdan so'ng darhol uning mantiqiy davomi bo'lgan maslahat.* Bunday holat yuridik klinika nizomida belgilangan darhol maslahat berilmasligiga tegishli umumiy qoidaga zid bo'lsa-da, ayrim hollarda murojaatchining uzoqdan kelganligi, qonunchilikda belgilangan protsessual muddatning kam qolganligi va klinika volontyori murojaatga javob bera olish imkoniyati kabi omillarni inobatga olgan holda istisno tariqasida yo'l qo'yilishi mumkin. Bu qonunchilikni qo'llash amaliyotini, huquqiy va qo'shimcha ma'lumotnomalarni o'rganishni talab qilmaydigan oddiy huquqiy masalalarga taalluqlidir;
- *suhbatdan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng amalga oshiriladigan maslahat.* Ushbu turdagi maslahat aksariyat yuridik klinikalarda qo'llanilib, unda intervyu o'tkazish va maslahat berish alohida jarayondan iborat bo'ladi. Klinist talaba murojaatchining savolini puxta o'rganishi, yuridik ma'lumotlar bazalari bilan ishlashi, javobni tayyorlashi, o'qituvchi yoki advokat bilan maslahatlashuvi zarurati maslahat berishning bunday turini tanlash asos sanaladi. Bunday yuridik klinikalarda talaba murojaatchiga darhol javob bermasligi to'g'risidagi qoida o'rnatilgan bo'ladi. Murojaatning murakkablik darajasi, o'rganiladigan materiallar va tahlil etiladigan ma'lumotlarning hajmidan kelib chiqqan holda maslahat berish muddati intervyu o'tkazilgandan keyin 7-14 kunni tashkil etadi.

### **III. Maslahat beruvchi va murojaatchi o'rtasida bevosita aloqa mavjudligiga qarab:**

- *yuzma-yuz uchrashgan holda beriladigan maslahat.* Ushbu turdagi maslahat yuristlarning yuridik klinikalardagi faoliyatida eng keng tarqalgan. Uning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi: bu klinika volontyoriga yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlash, maslahat mohiyatini tushuntirish, murojaatchining savollariga aniq javob berish imkoniyatini beradi;
- *sirtidan maslahat.* Tashqi maslahatlarning turlari - telefon orqali, pochta xizmatlaridan, elektron pochta va internetdan foydalanib, gazeta, jurnal va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali

maslahat berish. Sirtidan maslahat berayotganda odatda murojaatchi bilan suhbatlashishda olinadigan ma'lumotlar bo'lmaydi; axborot olishning og'zaki usullaridan foydalanish imkoniyati cheklanadi; javob yozishda maxsus ko'nikmalarni talab qiladi. COVID-19 munosabati bilan joriy etilgan karantin tufayli ko'pgina klinikalar singari Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasi ham fuqarolarning murojaatlarini bevosita qabul qila olmadi. Bu biz ko'rib chiqayotgan sirtidan maslahat berishning internet orqali va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda beriladigan maslahat turlarining keskin rivojlanishiga sabab bo'ldi.

#### **IV. Shakliga ko'ra maslahatlar ikki turga bo'linadi:**

- *Og'zaki maslahat.* Og'zaki maslahat yordamida klinika volontyori og'zaki ravishda murojaatchiga huquqiy muammodan chiqish imkoniyatlarini, yuridik maslahatining mohiyatini, murojaatchining huquqiy pozitsiyasini tushuntirib beradi;
- *Yozma maslahat.* Klinist talabalar ushbu turdagi maslahatlarda "yozishmalar bo'yicha advokat" vazifasini bajaradilar. Masalan, yuridik klinika faoliyatida talabalar ishining muhim qismi da'vo arizalari, davlat organlari va mansabdor shaxslarga yozma murojaatnomalar, apellyatsiya shikoyatlari kabi huquqiy va protsessual hujjatlarning namunalarini tayyorlashdan iborat bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan protsessual va huquqiy hujjatlardan tashqari yo'zma maslahatlar murojaatchining yo'zma murojaatiga javob tarzda tayyorlangan javob xatlarini qamrab oladi. Chunki bu javob xatlarda murojaatchining muammosi yuzasidan mavjud echimlar nazarda tutiladi.

#### **3.2. Yozma maslahat uchun tavsiyalar**

Har qanday yozma maslahat - bu murojaatchiga sizning vaziyatni huquqiy baholashingiz, tegishli normativ materialni tahlil qilish va chiqarilgan xulosalar to'g'risida yozma xabar berishingizni anglatadi. Shuning uchun yo'zma maslahatlarni tayyorlashda klinika volontyoridan maksimal darajada xolis va adolatli bo'lish talab etiladi.

Javobning mazmuni qanday bo'lishidan qat'iy nazar, maslahat orqali murojaatchida sizning malakangizga, uning muammosini chuqur anglaganingiz va masalaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lganingizga ishonch hosil bo'lishi kerak.

Yozma maslahatning asosiy vazifasi - savolga ma'lum talablar asosida javob berish, xatning mazmuni va tuzilishiga qo'yiladigan talablarga rioya qilishdir.

Ayrim hollarda klinikaga murojaat etgan fuqarolar o'zlari qo'lda yozib kelgan arizalarni kompyuterda terib berishni so'rab kelishadi. Yuridik klinika nizomiga ko'ra klinika texnik xizmat ko'rsatuvchi emas, balki bepul huquqiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot sanaladi. Shunga ko'ra, odatda, bunday murojaatlar klinika talabalari tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Buning asosiy sababi, murojaatchi qo'lyozmasidagi matnni kompyuterda terishda klinika volontyori, undagi ma'lumotlarning huquqiy jihatdan to'g'riligini tekshirish imkoniga ega bo'lmaydi. Bu hol esa ayrim insofsiz murojaatchilar tomonidan suiiste'mol qilinishi va oqibatda yuridik klinika nomiga dog' tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Klinika volontyori murojaatchi qo'lyozmasini asos qilgan holda, unda keltirilgan ma'lumotlarning qonuniyligini tekshirish va tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish huquqi bilan bunday turdagi yozma maslahat berishga klinika rahbari tomonidan ruxsat berilishi mumkin.

Klinika volontyori maslahat berayotganda murojaatchi tushunadigan so'zlar va atamalarni qo'llashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Tabiiyki yuridik klinikada, ba'zi hollarda maxsus yuridik jummalardan foydalanmasdan maslahat berish imkonsiz bo'ladi. Bunday vaziyatda murojaatchiga uning ma'nosini tushuntirish, shu orqali o'zaro tushunishni ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuni yodda tutish kerakki, murojaatchiga maslahat berishda intervyu jarayonida aniqlangan, uning xarakteriga xos xususiyatlarni (asabiylashish, o'ziga ishonch) hisobga olgan holda maslahat mazmunini imkon qadar neytral tarzda tuzishga harakat qilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Maslahat mazmunida neytrallik chegaralarga rioya qilgan holda murojaatchini qo'llab-quvvatlash joiz, lekin bu hol unga salbiy ma'lumot yetkazilmasligiga olib kelmasligi kerak. Bu erda salbiy ma'lumot deganda murojaatchining maqsadiga mos kelmaydigan, lekin qonun hujjatlari talabiga ko'ra berilgan ma'lumot tushuniladi. Klinikaga murojaat etgan fuqarolar ko'pincha o'zlarini haq deb hisoblashadi. Lekin ishdagi hujjatlar va faktlar tahlili, amaldagi qonun normalari murojaatchining talabi qonunga mos emasligini ko'rsatadi. Aynan shunday hollarda klinika volontyori murojaatchiga uning talabi qonun normalariga mos emasligini diplomatik yo'l bilan tushuntirishdan qo'rqmasligi kerak.

Maslahat sizning professional fikringizni aks ettiradi, shuning uchun xatda vaziyatni huquqiy baholash murojaatchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida va amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilganligini ko'rsatish tavsiya etiladi.

Rasmiy yozma maslahat quyidagi qismlardan iborat tarzda tuzilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

**1. Kirish.** Yozma maslahatning kirish qismida murojaatning qisqacha mazmuni va murojaatchining maqsadi bayon qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Quyida yozma maslahatning kirish qismiga misol keltirilmoqda

Hurmatli Abdulla Axmedovich,

Sizning Toshkent davlat yuridik universitetiga 2020 yil 29-iyunda yuborgan murojaatingiz o'rganib chiqildi. Unda Siz sog'lig'ingiz zarurati yuzasidan IIV davolash muassasalariga qilgan murojaatlaringiz oid masalalarni bayon etib, ayrim savollarni bergansiz.

**2. Murojaatdagi faktlarni tasdiqlash.** Sizning tahlilingizga asoslangan faktlarni qisqacha sarhisob qilish kerak. Ularning manbalarini keltiring va o'z nuqtai nazariningiz murojaatchining xatida ko'rsatilgan holatlarga asoslanganligini tasdiqlang.

Yozma maslahatning ushbu qismini tuzayotganda, siz haqiqiy vaziyat bilan shug'ullanayotganingizni unutmasingiz, faktlarni tushunishingiz va tizimlashtirishingiz kerak. Shu munosabat bilan, asosiy faktlarni qisqacha ro'yxatlash va ularni qanday tushunganingizni ko'rsatish tavsiya etiladi.

**Qonunni tushuntirish.** Murojaatchining muammosini hal qilishning huquqiy asoslarini aniqlagandan so'ng, siz unga mavjud bo'lgan normativ hujjatlar va ularning tegishli muammoga tatbiq etilishi haqida aytib berishingiz kerak. Murojaatchiga aniq va doimiy ravishda savollariga qanday asoslarga ko'ra javob berilganligini ko'rsating. Masalan:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29-ноябрдаги “Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3413-сон қарори билан тасдиқланган “Ички ишлар органларида хизматни ўташ тартиби тўғрисида”ги низомнинг 123-бандига биноан, ходимлар, **ички ишлар органларининг пенсионерлари ҳамда уларнинг оила аъзолари**, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги таълим муассасалари курсант (тингловчи)лари амбулатор, стационар ва тиббий-санитария шароитида бепул тиббий хизмат олиш мақсадида **Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тиббий-даволаш муассасаларига бириктирилади, уларда қонун ҳужжатларда белгиланган тартибда даволанади ва соғломлаштиришдан ўтказилади**. Ходимлар ва **ички ишлар органларининг пенсионерлари** санаторий-курорт шароитида даволаниш учун йилида бир марта имтиёзли йўлланмалар билан таъминланадилар.

**3. Xulosa.** Yozma maslahatning oxirgi qismida xulosa qilasiz. Yodda tuting, maslahat berish munozara yoki tortishuv emas va u majburiy ijro talab qilmaydi.

Bu yerda siz murojaatchining savollariga muqobil yechimlarni tavsiya qilasiz, ushbu muqobil yechimlarning xatarlari va foydalarini tushuntirasiz.

Maslahatni muhim masalalarni qamrab olish bilan tugatish tavsiya etiladi: keyingi uchrashuvni belgilash, aloqa ma'lumotlari va boshqalar. Va albatta imzo qo'yishni unutmang.

Agar sizni ishdan bo'shatgan ish beruvchining xizmatda foydalanish bo'yicha hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, Siz o'zingiz birlashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tibbiy-davolash muassasalariga borib, u yerda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davolanish va sog'lomlashtirishdan o'tish huquqiga egasiz.

Shu bilan birga, pensiya va ijtimoiy ta'minot masalasida bo'shatilgan ish joyingizga murojaat qilishingiz tavsiya etiladi.

Yozma maslahatda yuqoridagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish, albatta, murojaatchi bilan munosabatlaringizga muayyan darajada ta'sir qiladi, ammo maslahatlashuvning umumiy qoidalariga daxl qilmaydi.

### **3.3 Huquqiy maslahat berishga tayyorlanish**

Maslahat berish jarayonini ikki bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) Maslahat berishga tayyorgarlik;
- 2) Maslahat berish uchun murojaatchi bilan uchrashuv.

Huquqiy maslahat berishga tayyorgarlik bosqichi murojaatchi tomonidan intervyu jarayonida bildirilgan ishning holatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Murojaatchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, uning muammosini hal qilishda zarur bo'lgan normativ-huquqiy baza va sud amaliyoti o'rganiladi.

Klinika volontyori buni ko'pincha murojaatchi yo'qligida, o'qituvchining rahbarligida amalga oshiradi. Murojaatchiga darhol maslahat berish kerak bo'lganda ham mazkur vaziyatlar chiqarib tashlanmaydi. Ya'ni klinika volontyori murojaatchining huzurida xijolat tortmasdan, tegishli qonun normarini ko'rish, murojaatchining talabi qonuniyligini tekshirishi shart. Klinika volontyori tegishli ixtisoslashgan seksiyaga birlashtirilgan bo'lsa ham qonunchilik tez tez o'zgarib turishini e'tiborsiz qoldirmasligi kerak. Shuning uchun shoshilinch ish qilish klinika volontyorining maslahat berishda xatoga olib kelishi va murojaatchining manfaatlariga zarar etkazishi mumkin. Pirovardida bu hol yuridik klinika va universitet obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, klinist talabalar maslahat berishga faqat murojaatchi yo'q bo'lganda tayyorlanadilar. Bu jarayon bir qator holatlarga bog'liq. Birinchidan, talaba-klinist uchun tegishli normativ hujjatlarni izlash, ularni tahlil qilish va haqiqiy vaziyatlar bilan taqqoslash jarayoni uzoq davom etishi mumkin. Ikkinchidan, talaba tomonidan maslahat berishga tayyorgarlik jarayonida qo'llanilishi kerak bo'lgan normani topishda, huquqiy pozitsiyani shakllantirishda va tanlangan xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlarini modellashtirishda uslubiy yordam ko'rsatadigan o'qituvchilar ishtirok etishi kerak. Talaba-o'qituvchi formatidagi muloqot ham murojaatchi yo'qligida amalga oshirilishi kerak.

Axborot materialini puxta tayyorlash, "sayqallash" murojaatchi bilan aloqa qilishga professional yondashuvdan dalolat beradi. Rejalashtirish murojaatchining xususiyatlari va potensial talablarini hisobga olgan holda maslahatning vaqt chegaralari va tuzilishini aniqlash, murojaatchining maqsadlariga bosqichma-bosqich erishish yo'llarini belgilashni o'z ichiga oladi. Kichkina tafsilotlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik huquqiy maslahatning mukammalligini belgilaydi.

Tayyorgarlik bosqichida klinist talaba ko'pincha yozma maslahat matnini, normativ-huquqiy hujjatlardan ko'chirmalarni tayyorlaydi. Binobarin, ushbu bosqichni, garchi u hali o'tkazilmagan bo'lsa ham, maslahatning ajralmas qismi deb hisoblash mumkin.

Huquqiy maslahatning sifati ko'p jihatdan intervyu jarayonida olingan ma'lumotlarning sintezi va tahliliga bog'liq. Shuning uchun, intervyudan so'ng darhol rezyume yozish kerak.

Rezyume - bu murojaatchidan olingan qonuniy ahamiyatga ega ma'lumotlar to'plamidir. Agar murojaatchi bir nechta muammolar bo'yicha maslahat so'rasa, u holda qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar har bir muammo uchun alohida umumlashtiriladi.

Rezyume tuzish uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirish zarur:

- Murojaatdagi faktlarni xronologiya bo'yicha tizimlashtirish;
- Faktlar orasidan murojaatchining maqsadini isbotlaydiganlarini ajratish
- Murojaat mazmunidagi huquqiy muammoni aniqlash;
- Aniqlangan huquqiy muammoga oid normativ-huquqiy hujjatlarni aniqlash;
- Murojaatchining muammosini ixcham, kontsentratsiyali shakllantirish, voqea ko'rinishini tuzish mahoratiga amal qilish.

Quyida ishdan bo'shatish va moddiy javobgarlik masalalari bo'yicha murojaatchining yuridik klinikaga murojaat qilishi misolida aniq maslahat berish jarayoni bilan tanishishingiz mumkin.

Murojaatning mazmuni va murojaatchining maqsadi bayon qilingan qismi namunasi:

*Oybek ismli shaxs yuridik klinikaga o'z muammosiga yechim so'rab murojaat qildi. Oybek 2015 yil avgust oyidan boshlab 1 yillik shartnoma asosida do'konda sotuvchi bo'lib ishlaydi. U bilan sotuvchi sifatida to'liq javobgarlik to'g'risidagi shartnoma ham tuzilgan. Yaqinda do'konda tekshiruv o'tkazilib, katta miqdordagi kamomad aniqlandi. Barcha mablag'sotuvchilar o'rtasida taqsimlandi va Oybek 4.440.000 so'mni kamomad sifatida to'lashi belgilandi. Oybekning faoliyati davomida do'kon uchta qayta chegirmalarni amalga oshirdi va u bir marta tanqislikni qoplash uchun daromadining 50 foizini ushlab qolish to'g'risidagi kelishuv asosida kamomadni to'lagan (uning daromadi 2.000.000 so'mni tashkil qiladi). Endi Oybek boshqa sotuvchilar bilan bir qatorda ishdan bo'shash to'g'risida ariza yozdi. Biroq, unga qarzni to'lamaguncha mehnat daftarchasi berilmasligi va buyruq imzolanmasligi bilan qo'rqitishdi. Shunga asosan Oybek quyidagi masalalar bo'yicha tushuntirishni so'raydi:*

- 1) *Qanday qilib u iloji boricha tezroq va eng kam xarajat bilan vaziyatdan chiqib ketishi mumkin?*
- 2) *Qarzni to'lamaslikning iloji bormi va kamomad uchun kompensatsiya qanday tartibda undiriladi?*
- 3) *Ish beruvchining qarz to'laguniga qadar unga mehnat daftarchasini bermaslik va buyruqqa imzo qo'ymaslik huquqi bormi?*
- 4) *Agar Oybek qarzni to'lashga qodir bo'lmasa, uni qanday asosda ishdan bo'shatish mumkin?*

Murojaatdagi faktlar tahlili namunasi:

- **Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasining turi va muddati.** Suhbat davomida Oybek bilan 1 yil muddatga shartnoma tuzilganligi va shartnoma muddati tugamagani ma'lum bo'ldi. Demak, Oybek o'z xohishi bilan iste'foga chiqish uchun ish beruvchini **ikki hafta oldin yozma ravishda ogohlantirishi kerak.** (Mehnat kodeksi 99-modda);
- **Oybek bilan to'liq javobgarlik to'g'risida shartnoma mavjudligi.** Buning uchun xodimning mehnat funksiyasini, tovarlarni saqlash, qayta ishlash, sotish, tashish yoki ishlab chiqarish jarayonida unga o'tkazilgan moddiy boyliklarni ishlatish bilan bog'liqligini **aniqlashtirish kerak.** (MK 185-186-moddalar);
- **To'liq jamoaviy javobgarlik asosida ishlagan xodimlar sonini aniqlash,** bu xodim tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan kamomad miqdoriga ta'sir qiladi;

**Ish beruvchi tomonidan mol-mulkning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilganligini aniqlash.**

Murojaatdagi asosiy faktlar tahlili amalga oshirilgandan keyin klinika volontyori tomonidan murojaatchining maqsadidan kelib chiqqan holda unga javob tayyorlash buyicha ish reja tuziladi. Mazkur ish rejada klinika talabasi tomonidan ushbu murojaatni ko'rib chiqish va unga javob tayyorlash uchun qilinadigan ishlarning batafsil dasturi bayon etiladi.

#### **Klinika talabasi tomonidan murojaat bo'yicha ish reja namunasi:**

1. *Murojaatchining muammosini hal qilish uchun **zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlar doirasini aniqlash.** Agar kerak bo'lsa ujjatlar matnlaridan ko'chirmalar ish rejasiga ilova qilinadi;*
2. ***Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan va murojaatchi tomonidan taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlarni aniqlash:** shartnoma va to'liq javobgarlik to'g'risidagi shartnomaning nusxalari;*
3. ***Murojaatchining muammosini hal qilishning mumkin bo'lgan yechimlari, uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish** (ish beruvchining mehnat qonunchiligini buzishi munosabati bilan shartnomani bekor qilish to'g'risidagi da'vo arizasi; davlat mehnat nazorati bo'limiga shikoyat berish; ishdan bo'shash to'g'risidagi arizani qabul qilish bilan bir vaqtning o'zida zararni ixtiyoriy ravishda qoplash);*
4. ***Har bir mumkin bo'lgan variantning huquqiy oqibatlarini aniqlash;***
5. ***Murojaatchining muammosini hal qilishning har bir variantini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish** (masalan, da'vo arizasi loyahasini tuzish, yuqori turuvchi organga shikoyat berish...);*

Kerakli me'yoriy materiallarni tahlil qilish. Maslahatlashishga tayyorgarlik ko'rayotganda, klinist-talaba suhbat paytida aniqlangan faktlarni eslab qolishi va vaziyatga tegishli bo'lgan jamoatchilik munosabatini tartibga soluvchi qonun normalarini topishi kerak.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining mehnat shartnomasini bekor qilish va zararni qoplash asoslari haqidagi normalariga, Fuqarolik kodeksining zararni undirish to'g'risidagi normalariga va boshqa qonunosti hujjatlariga murojaat qilish lozim bo'ladi.

2. O'qituvchi bilan ishlash. Klinist talabalar maslahatga tayyorgarlik ko'rishda yordam va uslubiy yordam ko'rsatadigan o'qituvchi bilan faolroq ishlashlari kerak. O'qituvchi ishning materiallari va rejalashtirish bilan tanishib chiqadi, agar kerak bo'lsa, kamchiliklarni va ularni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatib berad. Bundan tashqari, o'qituvchi murojaatchi bilan birinchi suhbat davomida olingan ma'lumotlarning miqdori sifatli maslahat berish uchun yetarli emasligi aniqlangan taqdirda ikkinchi suhbatga ehtiyoj borligini ko'rsatishi mumkin.

O'qituvchi talaba klinistga tayyor javobni bermasligi kerak, chunki bu maslahat berishning o'quv jarayonini o'z ichiga olmaydi. U talabani ishning haqiqiy sharoitida boshqarishi, agar kerak bo'lsa, unga qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan qonun normasini mustaqil ravishda topishi uchun normativ-huquqiy hujjatlar guruhini taklif qilish kerak.

3. Kamchiliklarni bartaraf etish. O'qituvchining sharhlari asosida talaba kamchiliklarni bartaraf qiladi va maslahatning yakuniy ko'rinishini taqdim etadi. Garchi og'zaki maslahat berishlar bir qator yuridik klinikalarda amalga oshirilsa-da, ta'lim maqsadlarida murojaatchining muammosini hal qilishning mumkin bo'lgan barcha huquqiy yechimlari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek ushbu yechimlarni amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan yozma maslahatlar afzalroqdir. Bu talabalar o'rtasida maslahat berish tajribasining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, maslahatning batafsil tavsifi talabaga murojaatchiga uzatiladigan ma'lumotlarga diqqatini jamlash, barcha kerakli ma'lumotlarni yetkazish va shunchaki chalkashmasliklariga yordam beradi.

4. Maslahat berish uchun ssenariy tuzish. Talaba va o'qituvchi murojaatchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda maslahat senariysini muhokama qiladi.

Natijada, yuqoridagi talabga binoan talaba quyidagi yozma maslahatlarni tayyorlaydi:



## **Talaba tomonidan tayyorlangan yozma maslahat:**

### **1. O. qanday asoslarga ko'ra iste'foga chiqishi mumkin?**

Mehnat kodeksining 99-moddasiga asosan, xodim nommuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddatli mehnat shartnomasini ish beruvchini ikki hafta oldin yozma ravishda ogohlantirib, bekor qilishi mumkin. Bu vaziyatda yetkazilgan zarar maslalsiga oydinlik kiritish lozim bo'ladi.

Shuningdek, Mehnat kodeksi tomonlarning kelishuvi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish imkoniyatini ham nazarda tutadi (Mehnat kodeksining 97-moddasi). Biroq, tomonlarning kelishuvi ham ishchining, ham ish beruvchining irodasi mavjudligini nazarda tutadi. Shunday qilib, bu holda ish beruvchi tomonlarning kelishuvi bilan shartnomani bekor qilishga rozi bo'lmasligi mumkin va uni majburlash mumkin emas.

99-moddaga asosan mehnat shartnomasini bekor qilish va zararni to'lamaslik uchun 199-moddaga asosan o'zining aybsiz ekanligini isbotlashi ham talab etiladi.

Xodim o'zining aybsiz ekanligini isbotlay olmasa MK 198-moddasiga asosan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplashi shart. Qoplanmagan taqdirda sud orqali undirilishi mumkin.

O. uchun mehnat shartnomasini bekor qilish uchun yana bir yo'lish beruvchining MK 200-moddasi asosida yetkazilgan zararni undirishdan voz kechishidan so'ng 99-modda asosida amalga oshirilishi mumkin. Ammo bu hodisaning yuz berish ehtimoli kam.

### **2. Qarzni to'lashdan qochishning biron bir usuli bormi? Kamomad qarzi qanday tartibda undiriladi?**

Mehnat kodeksiga asosan ish beruvchiga xodim tomonidan yetkazilgan zarar to'liq qoplanishi kerak (MK 198-modda). Yetkazilgan zarar barcha javobgarlar o'rtasida teng taqsimlanishi yoki har birining yetkazgan zarariga mutanosib tarzda belgilanishi mumkin.

O. moddiy javobgarlikdan qutulishi uchun birinchi yo'l u kamomad hosil bo'lishida o'zining aybli emasligini isbotlab berishi hisoblanadi.

Ikkinchi yo'l esa ish beruvchining zararni undirishdan ixtiyoriy voz kechishi orqali javobgarlikdan qutulishdir.

Mehnat kodeksiga asosan zarar ixtiyoriy yoki majburiy tarzda undirilishi mumkin. (MK 206-207-moddalar) O. tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zarar uning o'rtacha oylik haqidan ko'p bo'lganligi va oradan bir oydan ko'p vaqt o'tganligi uchun ish beruvchi xodimdan zararni sud orqali majburiy undirishi mumkin. Chunki xodim MK 203-moddasiga asosan o'ziga ishonib topshirilgan moddiy qiymatga ega mahsulotlar saqlanmaganligi uchun javobgar bo'ladi.

Mehnat kodeksiga asosan ish beruvchi zararni ikki xil yo'l bilan: xodimning oylik ish haqidan ushlab qolish yoki sudga murojaat qilish yo'li bilan undirishi mumki. FPK 26-modasiga ko'ra, mehnat nizolari yuzaga kelga taqdirda fuqarolik sudiga murojaat qilish mumkin.

Sud jarayonida quyidagilar yuz berishi mumkin. Agar ish beruvchi 4.400.000 so'm miqdoridagi zararni undirish bo'yicha ishda g'olib chiqsa, Fuqarolik protsessual kodeksi asosida javobgardan da'vogar tomonidan ishda ko'rish qilingan barcha xarajatlarni, shu jumladan davlat bojini qoplash ("Davlat boji to'g'risida" qonunga ko'ra da'vo bahosining 4 foizi miqdorida, biroq BHMning bir baravaridan kam bo'lmasligi kerak) qoplanishi talab qilinadi. Sud aybdorlik darajasini, o'ziga xos holatlarni va xodimning moddiy ahvolini hisobga olgan holda, qoplanishi kerak bo'lgan zarar miqdorini kamaytirishi mumkin.

### **3. Ish beruvchining unga mehnat daftarchasini bermaslik va qarzni to'lamaguncha ishchi varag'iga imzo qo'ymaslik huquqi bormi?**

Mehnat kodeksi 108-moddasiga asosan ish beruvchi mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni mehnat daftarchasini va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruq nusxasini xodimga taqdim etishi lozim.

Mehnat qonunchiligi ishchi varag'ini imzolashni tartibga solmaydi, Qonunchilikda "ishchi varaqasi" tushunchasi haqida ham so'z yuritilmaydi. Shu sababli, ushbu holat bo'yicha biron bir narsaga oydinlik kiritish qiyin. Bizning fikrimizcha, zararni qoplash bo'yicha maxsus protsess belgilab qo'yilganligi sababli, ish beruvchi ushbu asosda ishchi varag'iga imzo qo'ymaslik huquqiga ega emas.

### **4. Agar O. qarzni to'lay olmasa, uni qanday asosda ishdan bo'shatish mumkin?**

Mehnat kodeksining 181-moddasi mehnat intizomi buzilgan taqdirda ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilish mumkinligini ifodalaydi. Sizing holatingizda eng maqbul yo'l ushbu asoslarga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilish va zararlarni undirishning mehnat kodeksidagi tartibiga amal qilmaganligi bois mazkur ishni sud tartibida amalga oshirish ehtimoliy eng yaqin yechim hisoblanadi.

Javob tayyorlagan talaba-maslahatchi \_\_\_\_\_

Maslahatga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagilar tavsiya etiladi:

- **Yuridik ahamiyatga ega ma'lumotni yuridik jihatdan ahamiyatsiz bo'lganlaridan ajratish.** Murojaatchi uning muammosini hal qilish uchun muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni baham ko'radi. Shu bilan birga, u yuridik ahamiyatga ega ma'lumotlardan tashqari, ko'pincha yuridik ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin bo'lgan faktlarni ham sanab o'tadi. Bunday holda faqat qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ajrata olish muhimdir. Masalan, yuridik klinikalardagi ishlarning juda keng tarqalgan toifasi - qo'shnilar tomonidan kvartirani suv bosishi bilan bog'liq moddiy zararni qoplash hollari. Bunday holda, suv toshqini yuz bergan sana; uy-joyni ta'mirlash tashkiloti tomonidan tuzilgan dalolatnoma; suv toshqinining sababi (qo'shnilarning beparvoligi yoki turar-joy binosining kommunal infratuzilmasiga kiritilgan quvurlarning nosozlik oqibatida ishlamay qolishi); moddiy zararni baholash dalolatnomasi. Bunday holatlarda murojaatchining shaxslararo munosabatlari haqida ma'lumotlar almashishiga to'g'ri keladi. Masalan, murojaatchi qo'shnilarning janjalli xarakterini, bitta uyda yashashning iloji yo'qligini va boshqalarni ko'rsatishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar mulkiy zararni qoplash to'g'risidagi da'vo bo'yicha maslahat uchun huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Huquqiy bo'lmagan ma'lumotlardan huquqiy ma'lumotlarni farqlash zarurati yuridik ahamiyatga ega faktlarni aniqlash va murojaatchiga asoslantirilgan huquqiy yordam berish uchun muhimdir. Yurist ma'lumotlarni filtrlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.
- **Qonunlar va huquqiy normalarni aniqlashtirish va ulardan murojaatchining dalillari va talablariga mos keladiganlarini tanlash.** Talaba doimiy ravishda murojaatchining muammosini hal qilishning bir qancha yo'llari mavjud bo'lishi mumkinligini yodda tutishi kerak. Ko'pincha, tajriba yetishmasligi tufayli talaba murojaatchi muammosini hal qilishning faqat bitta variantida to'xtaydi va bu unga eng maqbul yo'l sifatida ko'rinadi. Maslahatlashishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida murojaatchilarni qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi haqida unutmazlik kerak. Bu murojaatchilar o'zlarining muammolarini iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini begona odamga qaraganda yaxshiroq bilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, murojaatchi muammoning har qanday yuridik ahamiyatga ega va yuridik ahamiyatga ega bo'lmagan jihatlarini va mulohazalarini birlashtirganligi sababli, odatda bir qator tavsiya etilgan variantlardan o'zi uchun eng mos yechimni tanlashi mumkin. Ushbu yondashuvda murojaatchining xulq-atvori

va his-tuyg'ulari uning muammolarida aks etishini, maslahat berish jarayonida ularni hisobga olish kerak. Murojaatchilarga ishonch konsepsiyasining afzalligi shundaki, u qoniqarli yechimlar ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

- Tahlil qilingan har bir qonun normasining amal qilish chegaralarini va ularni ushbu murojaatchi uchun qo'llash oqibatlarini aniqlash;
- Murojaatchining vaziyatiga nisbatan tadbir qilish mumkin bo'lgan tartib-qoidalarni belgilash;
- Talab etiladigan vaqtni, amalga oshirish zarur bo'lgan harakatlarni hisoblash;
- Asossiz qarorlarga yo'l qo'yish mumkinligi va uning oqibatlarini hisoblash.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, klinist talabalar maslahat berishga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishi va nazorat qiluvchi o'qituvchi yoki advokat nazorati ostida bo'lishi kerak.

### **3.4. Murojaatchi bilan klinika talabalarining uchrashuvi**

Maslahat berishning ikkinchi bosqichida (maslahat berish uchun murojaatchi bilan uchrashuv) yuridik maslahatni o'tkazish usullarini to'g'ri tanlash juda muhimdir. Suhbat jarayonida talaba klinikaga murojaat qiluvchi murojaatining turi va ishning o'ziga xos holatlari to'g'risida yetarlicha tushunchaga ega bo'ladi.

Xuddi suhbat jarayoni singari, talaba tomonidan berilgan maslahat berish jaryoni ham murojaatchi bilan muloqot o'rnatishdan boshlanadi. Shu bilan birga, suhbat qilishdan farqli o'laroq, maslahatning faol ishtirokchisi - konsultatsiya mohiyatini belgilaydigan talaba-klinistdir. Agar murojaatchi jimgina talaba-maslahatchini tinglasa, demak, u mazkur konsultatsiya mohiyatini anglagan deganidir.

Odatda talaba yuridik klinikada shaxsan maslahat berish uchun murojaatchi bilan uchrashadi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini yaxshilash, malakali huquqiy yordam berish maqsadida, talaba murojaatchi bilan maslahatlashayotganda o'qituvchi yoki yuridik klinikaning rahbari talaba bilan birga protsess jarayonida ishtirok etsa, berilayotgan huquqiy yordamning ahamiyati sifatli bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, oliy yuridik ma'lumotga ega kadr bilan maslahatlashgandan so'ng talaba bilan maslahatning to'g'riligini individual ravishda muhokama qilishi, tavsiyalar berishi va xatolarini to'g'ri ko'rsatishi mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, AQShning ba'zi yuridik maktablarida tashkil etilgan yuridik klinikalarida, klinikaning talabalar tomonidan murojaatchilar bilan suhbat va maslahatlashuvlar o'tkaziladigan xonalari videokameralar bilan jihozlangan bo'lib, bu o'qituvchilarga ushbu jarayonlarni bevosita mazkur protsessni xonada bo'lmasdan kuzatishga imkon beradi. Bunday videolavhalar ko'pincha o'quv jarayonida jonli idrok etish va murojaatchilar bilan suhbatlashish va maslahat berish jarayonini tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Agar maslahat berish, ya'ni konsultatsiya jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar, ishga aloqador yangi holatlar aniqlansa, talaba konsultatsiyani to'xtatadi, suhbat bosqichiga o'tadi va murojaatchi bilan yangi uchrashuv belgilaydi. Shundan so'ng, avvalgi va qo'shimcha huquqiy ma'lumotlar asosida konsultatsiya uchun tayyorgarlik bosqichiga qaytish imkoniyati mavjud.

